

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.I.60.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

PAYAZOV MUROD MAKSUDOVICH

**XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA BOSHQARUV
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH
(“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ misolida)**

**08.00.13 – Menejment
08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Doktorlik (DSc) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Content of the Doctoral (DSc) dissertation Abstract

Payazov Murod Maksudovich

Xizmatlar bozorini rivojlantirishda boshqaruv metodologiyasini takomillashtirish (“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ)..... 3

Паязов Мурод Максудович

Совершенствование методологии управления в развитии рынка услуг (на примере АО “Узбекистан темир йуллари”)..... 41

Payazov Murod Maksudovich

Improving management methodology in the development of the services market (based on the example of “Uzbekistan temir yo‘llari” JSC)..... 82

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of publications..... 87

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.I.60.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

PAYAZOV MUROD MAKSUDOVICH

**XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA BOSHQARUV
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH
(“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ misolida)**

**08.00.13 – Menejment
08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.DSc/Iqt395-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Farg'ona davlat texnika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.adu.uz) va "Ziynet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: Nankeldiyeva Guzal Sherovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Rahimova Dilfuza Nigmatovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliyeva Maxhuba Toychiyevna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rejapov Xayrullo Xikmatillaevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03.30.12.2019.1.60.03 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "15" 07 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahar, Universitet ko'chasi 129-uy, Telefon/faks: 0 (374) 223 88 30, email: agsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2129⁰⁰ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahar, Universitet ko'chasi 129-uy, Tel/faks: 0 (374) 2238830).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "30" 06 kuni tarqatildi.
(2025-yil "30" 06 dagi 10/39 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.I. Askarov

N.I. Askarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

U.I. Maraimova

U.I. Maraimova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

A.T. Mirzayev

A.T. Mirzayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi (DSc) annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi, integratsiyasi hamda turli sohalarning raqamli transformatsiyalashuvi sharoitida xizmatlar bozorining rivojlanganligi, xizmatlarning yalpi ichki mahsulot (YIM) tarkibidagi ulushining eng rivojlangan davlatlar, jumladan, AQShda 74,7%, Avstriyada 64,2%, Shvetsiyada 71,8%, Germaniyada 62,6%, Singapurda 72,5% va Buyuk Britaniyada 72,8%¹ yuqorilab borayotganidir. Jahonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga ko'ra xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy mustaqilligiga ta'sir qiladi, chunki bu sohaning samaradorligi butun iqtisodiyot samaradorligining kalitidir. Shuning uchun, mamlakatda xizmatlar bozorini boshqarishning zamonaviy usullarni qo'llash va mavjud usullarni takomillashtirish asosida rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Jahon amaliyotida xizmatlar bozorini rivojlantirishda boshqaruv usullaridan samarali foydalanish, ularni takomillashtirish bo'yicha bir qator muammolarning ilmiy yechimlarini hal etish yuzasidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, temir yo'l transporti infratuzilmasi xizmatlarini yangi sifat ko'rsatkichlarini xalqaro standart va tamovillar asosida takomillashtirish, jahon davlatlari o'rtasidagi logistika xizmatlarini boshqarishning zamonaviy innovatsion usullarni qo'llash, temir yo'l transporti xizmatlarini boshqaruv samaradorligiga ta'sir etuvchi sivosiv, iitimoiv, iqtisodiv va texnologik omillar bilan bog'liqligini aniqlash, boshqarishning iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini barpo etish, xizmatlar bozorini rivojlantirishda boshqaruv metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston xizmatlar bozorida temir yo'l transporti xizmatlarini rivojlantirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Bu soha - iqtisodiyotning qon tomiri. Transport va logistikani yangi bosqichga olib chiqmasak, iqtisodiyotni barqaror rivojini ta'minlay olmaymiz"², -deb ta'kidlab o'tdi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida: "Transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, ...transport sohasida tashqi savdo uchun "yashil koridorlar" hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish" vazifalari belgilab berilgan. Mazkur masalalarga samarali yechim topish maqsadida xizmatlar bozorini rivojlantirishda temir yo'l transporti xizmatlari faoliyatini to'liq transformatsiyalash, baholash, monitoringini o'tkazish, yangi tuzilmalarni yaratish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, texnika va texnologiyalarni zamonaviylashtirish, raqamlashtirish, innovatsion faoliyatni tashkil etish, taraqqiyot strategiyalarini ishlab chiqish, faoliyat boshqaruvini zamonaviy, yangi bosqichga olib chiqishda ilmiy-tadqiqot ishlarini chuqurlashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-noyabrdagi O'RQ-1006-son "Temir yo'l transporti to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-avgustdagi 511-son "O'zbekiston temir yo'llari" AJ va uning tarkibidagi korxonalar tomonidan yer uchastkalaridan yanada samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktyabrdagi PQ-329-son "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini 2023-yilda

¹ https://ru.theglobaleconomy.com/rankings/Share_of_services/.

²Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-йил 28-сентябр кuni transport sohasida islohotlarni jadallashtirish masalasi bo'yicha so'zlagan nutqi. [Elektron manba]: https://uz.uz/uz/posts/transport-sohasini-rivozhlantirish-bo'yicha-takliflar-korib-chiqildi_411498.

sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2021-yil 30-sentabrdagi PF-6318-son "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³³. Xizmatlar bozorini rivojlantirishda boshqaruv metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha temir yo'l transporti misolida ilmiy tadqiqot izlanishlarni jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Harvard University (AQSh), European Conference of Ministers of Transport (Yevropa Ittifoqi), UNCTAD (Handbook of Statistics), Korea Railroad research instituti, (Koreya Respublikasi), Nanjing university of information science & technology (KNR), Karlstad universiteti qoshidagi CTF, Service Research Center (Shvetsariya), International Railway Research Board (IRRB), Birmingham Centre for Railway Research and Education (BCRRE), Institute of Railway Research (IRR), China Academy of Railway Sciences (CARS), West Japan Railway Internationale Weiterbildung und Entwicklung GmbH (Germaniya), Japan Railway Technical Research instituti, University of Hanseo (Koreya Respublikasi), Silk Road Research Center (YUNESKO), University of Science and Technology of China (Xitoy), Saxalin temir yo'l transporti instituti (Rossiya), Rostov davlat universiteti (Rossiya), Moskva temir yo'l transporti muhandislari instituti (Rossiya Federatsiyasi), O'zbekiston iqtisodiyot universiteti (O'zbekiston), O'zbekiston Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruv akademiyasi (Qozog'iston), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat transport universiteti, Temir yo'l transporti ilmiy-tadqiqot markazi, Farg'ona politexnika instituti, O'zbekiston Transport vazirligi qoshidagi "Transport ilmiy-tadqiqot markazi" MChJ (O'zbekiston Respublikasi) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Jahon xizmatlar bozorida temir yo'l transporti xizmatlarini samarali rivojlanish holatini aniqlash, tashkil etish yuzasidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilib, quvidagi ilmiy natijalar olingan. Xususan, Harvard Universiteti globallashtirish sharoitida servis iqtisodiyoti shakllanishining qonuniyatlari va o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan (AQSh), Markaziy Osiyo davlatlari hamda Afg'onistonni Janubiy Osiyo davlatlari bilan bog'lash orqali savdo-iqtisodiy hamda transport munosabtlarini yaxshilash maqsadida "Katta Markaziy Osiyo" konsepsiyasi ishlab chiqilgan (Markaziy Osiyo va Kavkaz Instituti (AQSh);

³³Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida tayyorlandi: <https://chsr.centre.uq.edu.au/>; <https://www.hsri.org/>; <https://www.hks.harvard.edu/sites/default/files/centers/cid/files/publications/faculty-working-papers/053.pdf>; https://www.oecd.org/en/publications/european-conference-of-ministers-of-transport-annual-report_23099488.html; <https://unctad.org/publication/review-maritime-transport-2024>; <https://uic.org/research-and-innovation/international-railway-research-board-irrb/>; <https://www.ctf-service-research-center.com/>; <https://masstransit.network/mass-transit-associations/china-academy-of-railway-sciences-cars/>; <https://broad.msu.edu/railway-center/>; <https://en.unesco.org/silkroad/>; <http://www.silkroadresearchcenter.org/>; <http://www.bjtrc.org.cn/>; <http://www.en.ustc.edu.cn/>; <https://www.csiro.au/>; <https://www.thebusinessresearchcompany.com/report/services-global-market-report>.

Shvetsariyadagi Karlstad universiteti tarkibida CTF, Service Research Center tadqiqotlar markazi xizmatlarni boshqarish va xizmat orqali qiymat yaratishga qaratilgan dunvodagi yetakchi tadqiqot markazi. Korea Railroad research instituti transport xizmatlari bozori subvektlarining faolivati strategiasini ishlab chiqqan. iqtisodiy munosabatlar zahirida yotgan inson manfaatlarini hisobga olishni asoslab bergan (Koreya Respublikasi). Xitoy temir yo‘l fanlari akademiyasi (CARS) 60 yil davomida temir yo‘l modernizatsiyasining asosiy yo‘nalishida ko‘plab eksperimental tadqiqotlar o‘tkazdi. Dengiz yo‘llaridan uzoqda joylashgan davlatlar uchun muqobil koridorlar tizimini yaratishni ko‘zda tutuvchi “Ipak yo‘lining iqtisodiy kamari” loyihasi (The Center for China & Globalization) ishlab chiqilgan. Silk Road Research Center “Bir kamar - bir yo‘l” tashabbusi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, YUNESKO tashabbusi bilan 10 dan ortiq ipak yo‘li davlatlarida transport xizmatlari va ulardagi muammolarni o‘rganadigan tadqiqot markazlari ochilgan. Xalqaro tashuvlarda zamonaviy yondashuvlarning iqtisodiy samaradorligini inobatga olgan holda, xususan intermodal logistika tashuvlarini Markaziy Osiyo davlatlari uchun qo‘llash mexanizmlari ishlab chiqilgan CAREC (Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorligi) hamda TRASEKA (Yevropa-Kavkaz-Osiyo transport koridori), Saxalin temir yo‘l transporti instituti (Rossiya) temir yo‘l transporti lokomotivlari, poyezdlarning harakatlanish tizimi, temir yo‘l, ko‘prik va yerosti o‘tish yollarini qurish masalasida, Rostov davlat universitetida (Rossiya) temir yo‘l izlaridan foydalanish. Moskva temir yo‘l transporti muhandislari institutida infratuzilma rivojlanishining past darajasi sharoitida logistika bozori tizimi rivojlanishi maqsadga muvofiqligi hamda transport-logistika xizmatlariga ehtiyoilarning ortishi asoslab berilgan (Rossiya Federatsiyasi). O‘zbekiston iqtisodiyot universitetida temir yo‘l transportining intergatsiyalashgan logistika sohasida. O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruv akademiyasida temir yo‘l orqali tranzit yuklarni hajmini oshirish masalalari yoritilgan (Qozog‘iston), Toshkent transport universiteti temir yo‘l sohasidagi dolzarb masalalar va innovatsiyalar mavzusida, O‘zbekiston Transport vazirligi qoshidagi “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” MChJ transport sohasida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlar, tajriba-sinov, loyihalash va ekspertiza ishlarini o‘tkazish, standartlash, sertifikatlashtirish va transport tizimini modellashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Jahon miqiyosida xizmatlar bozorini boshqaruvi qiymat yaratish, global bozor hajmi, biznes muhit, raqamli masofaviy xizmatlar doirasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xizmatlar bozorini rivojlantirishda boshqaruv metodologiyasini takomillashtirish doirasida, temir yo‘l modernizatsiyasi, “Bir kamar bir yo‘l” tashabbusi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlar, temir yo‘l transporti lokomotivlari, poyezdlarning harakatlanish tizimi, temir yo‘l, ko‘prik va yerosti o‘tish yollarini qurish, temir yo‘l izlaridan foydalanish, transport sohasini texnik jihatdan tartibga solish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlar, tajriba-sinov, loyihalash va ekspertiza ishlarini o‘tkazish, standartlash, sertifikatlashtirish, transport tizimini modellashtirish ishlarini amalga oshiradi hamda boshqa tijorat xizmatlarini ko‘rsatish orqali temir yo‘l xizmatlarini rivojlantirish, transport kompaniyalarining raqobatbardoshligida tashqi, ichki muhit omillarini hisobga olish, temir yo‘l transporti xizmatlarining globallasuvi hamda integratsiyalashuvini ta‘minlashda sinergetik samaradorlikni aniqlash, eng muqobil temir yo‘l yo‘laklarini qurishda temir yo‘l qatnov qismining iqtisodiy ahamiyatini asoslash va ishga tushirish, temir yo‘l operatorlari tomonidan xizmat ko‘rsatishning zamonaviy PL darajasini oshirish maqsadida tadqiqotning ilmiy asoslarini takomillashtirish yo‘nalishidagi ilmiy-tadqiqot ishlari shular jumlasidandir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xizmatlar bozorida boshqaruv metodologiyasini takomillashtirishni tadqiq etish bir qator xorijiy olimlar: F.Teylor, M.Meskon, J.B.Sey, P.Dryker, A.Smit, J.Marshall, S.R.Makkonnel, S.L.Bryu, M.Porter, K.Lavlak, Si.Veychao, G.Stojik, S.Veskovich, F.Kotler⁴ va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan xizmatlar bozorini rivojlantirishda boshqaruv metodologiyasini takomillashtirish masalalari V.S.Stepanova, A.P.Chelenkov, D.Kovell, A.P.Rumyansev, YU.O.Kovalenko, Z.I.Belkina, T.D.Burmenko, A.R.Gaysina, N.I.Artemov, A.YU.Kraskovskiy, V.V.Fortunatov, Ya.P.Silin⁵ va boshqalar tomonidan ijtimoiy hamda marketing yo'nalishida tahlil qilingan.

O'zbekistonda xizmatlar bozorida boshqaruv metodologiyasini takomillashtirish masalalarida mahalliy olimlardan S.S.Gulyamov, A.Gofurov, M.Q.Pardayev, M.A.Ikromov, N.Tuxliev, A.Voxobov, D.N.Raximova, M.T.Aliyeva, A.T.Mirzaev, I.Y.Umarov, X.X.Rejapov, K.U.Uldjaboyev, Y.K.Qorriyeva, A.A.Zohidov, M.M.Ziyayeva, A.B.Bobojonov, J.S.Fayzullayev, E.A.Kamalova, A.X.Ayubjonov, S.S.Saidumarxonov, M.M.Muxammedov, G'A.Samatov, B.A.Ismailov, M.N.Irisbekova, G.Sh.Xankeldiyeva, N.E.Babaxalov⁶ va boshqalar ilmiy tadqiqot olib borganlar.

⁴Тейлор Ф. Принципы научного менеджмента. США. 1911. – 77 с.; Мескон М. и др., Основы менеджмента. Перевод с англ. М.: Дело, 2007. // <https://www.ozon.ru/context/detail/id/2811144/>; Ж.Б.Сей. Трактат политической экономики.М.: Дело, 2000. С.-232.; П.Друкер. Посткапиталистическое общество. Новая постиндустриальная волна на Западе. /Пер. с англ. – М.: Вильямс. 2007. -398 с. А.Смит. Исследование о природе и причинах богатства народа /Директмедиа Паблишинг. М.: 2008. С.- 655; А.Маршалл. Принципы экономической науки. М.: Дикрет-медиа. 2012. К.Р.Макконнелл, С.Л.Брю. Экономикс: принципы, проблемы и политика = Economics: Principles, Problems, and Policies.—М. Республика, 1992.— Т.1.— С. 61.; Портер М. Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран [Текст] / М.Портер под ред. В.Д.Щетинина. – М.: Международные отношения. 1993. - 896 -с. К.Лавлак. Маркетинг услуг. Персонал технологии, стратегия, 4-е.изд.: пер.с англ.-М.:Издательский дом Вильямс. 2005.-С.34. G.Stojić, S.Vesković, I.Tanackov, S.Milinković: Model for Railway Infrastructure Management Organization. Promet – Traffic &Transportation, Vol. 24, 2012, No. 2, - Pp. 99-107; Ф.Котлер. Основы маркетинга. - М.: Прогресс.10. -638 с

⁵ В.С.Степанова. О теоритических подходах содержанию понятия «услуга». // Сборник конференций НИЦ Социосфера. 2014. №43. -С. 104-115.; А.П.Челенков. Маркетинг услуг: продукт // Маркетинг. 1998. №1. - С.116-120.; Donald W.Cowell, CAM Foundation, Chartered Institute of Marketing. Butterworth-Heinemann, Oxford, ©1984. – 340 p.; А.П.Румянцев. Мировой рынок услуг: учебное пособие. // А.П.Румянцев, Ю.О.Коваленко. - К.: Центр учебной литературы. 2006.- 456 с.; З.И.Беликина. Сфера услуг и качество жизни: территориальный аспект: монография // З.И.Белкина, Н.Ю.Стоюшко. – Владивосток: ДВГТУ, 2009. - 120 с.; Бурменко Т.Д. Сфера услуг в современном обществе: Экономика, менеджмент, маркетинг. // Учебное пособие. -Иркутск: БГУЭП, 2004. – 281 с.; А.Р.Гайсина, Н.И.Артемова. Современные проблемы развития предпринимательской деятельности в сфере услуг. // Современные проблемы науки и образования. 2015 №1. [Elektron manba]: URL:<http://science-education.ru/artikle/view?id=18553> (qaraldi 31.03.2022).; А.Е.Красковский, В.В.Фортунатов. Прорывные управленческие технологии на железнодорожном транспорте. СПб. Петербургский государственный университет путей сообщения; М.: Учеб-метод. центр по образованию на ж/д транспорте. 2012. - 340 с. Я.П.Силин. Инновационное развитие сферы услуг в национальной экономике: [монография]; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. гос. экон. ун-т. Екатеринбург: Изд-во Урал. гос. экон. ун-та, 2016. - 339 с.:

⁶ Гулямов С.С., Шермухаммедов А.Т. Развитие логистических центров в Узбекистане. Ж.: Потенциал современной науки. 2017. - С 73-78.; А.Гофуров. Курс на повышение эффективности работы железной дороги. // Межвузовский сборник научных трудов. Проблемы обеспечения безопасности работы железнодорожного транспорта. М.: Визит. 1990. - 126 с.; М.С.Пардаев ва бoshqalar. Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod va moliya, 2008. –133 b.; М.С.Пардаев, I.S.Ochilov. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo'llari. Monografiya, -T.: IQTISOD-MOLIA, 2011. - 172 b.; М.А.Икрамов. Развитие автомобильных перевозок по Великому шелковому пути. // Экономическое возрождение России. №4. 2010. – С. 28-36.; Н.Тухлиев, Т.Абдуллаева. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. -Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. -368 б.; А.В.Вахобов ва бoshqalar. Moliyaviy boshqaruv tahlili. Darslik. T.: Sharq, 2005. - 480 б.; Д.Н.Рахимова. Опыт повышения инвестиционного потенциала страны. International scientific and practical conference. Improving Uzbekistan's position in international ratings and indexes: teory, practice, and

Yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqotlar o'rganilayotgan muammoning tizimli yondashuvini aks ettirsa-da, biroq bugungi kunda mamlakat xizmatlar bozorini rivojlantirishda, boshqaruv metodologiyasini takomillashtirishda "O'zbekiston temir yo'llari" AJ misolida masalalar yetarlicha o'rganib chiqilmaganligini ko'rsatmoqda. Bu esa mazkur tadqiqot mavzusining tanlanishi, uning maqsadi va vazifalarini belgilab beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona politexnika institutining ITD-3 raqamli "Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash sharoitida korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishni tadqiq etish, boshqarishning samarador uslub va texnologiyalarini yaratish hamda takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston temir yo'l transporti xizmatlari bozorida boshqaruv metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

xizmatlar bozorini rivojlantirishda boshqaruv tizimini shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, raqamli transformatsiyalash, nazorat, baholashning ilg'or usullarini tavsiflash, ilmiy-uslubiy asoslarini yoritish;

temir yo'l transporti xizmatlarini boshqarish mexanizmlari sinergetikasi, shakli, usullari, raqamlashtirish, transformatsiyalashning nazariy jihatlarini o'rganish va rivojlantirish;

O'zbekiston xizmatlar bozori boshqaruv tizimida islohotlarning asosiy turlari bo'yicha davrlar kesimida, Global PMI, SCFI narxlar indeksi yordamida xizmatlar bozori tahlilini o'tkazish;

rivojlangan davlatlarning yalpi ichki mahsuloti (YIM)ni jahonning rivojlangan davlatlari YIMsiga solishtirish bilan mamlakat iqtisodiyotni

strategy. № 17. 2023. - С. 683-685.; Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari / M.T.Aliyeva; mas'ul muharrir S.S.Gulyamov; UzR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Toshkent davlat iqtisodiyet un-ti. -Toshkent: Fan, 2013. – 240 b.; A.T.Mirzayev Turistik-rekratsiya faoliyatini boshqarish va uni rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. -T.: Navro'z. 2020. -124 b.; I.Y.Umarov. O'zbekiston respublikasi oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqt.fan.dok.diss.avtoref. - T.: Iqtisod-moliya. 2020. -69 b.; X.X.Rejapov. Oliy ta'lim va mehnat bozori xizmatlari o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishning metodologik asoslari. Iqt.fan.dok.diss.-Andijon: 2023. - 207 b.; K.Y.U'ldjabaobov. Транспортная стратегия Республики Узбекистан на период до 2030 года. Методологические принципы и подходы. – Т.: 2014. - 43 с.; Y.K.Qorriyeva. O'zbekistonni jahon bozoriga chiqishi uchun xalqaro yo'laklardan samarali foydalanishning logistik transport muammolari. Iqt.fan.dok. diss. avtoref., Toshkent, 2004. – 44 b.; A.A.Zohidov. Markaziy Osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Iqt. fan. dok.dis. avtoref., Toshkent, 2018. - 66 b. M.M.Ziyayeva. Xizmatlar bozorini rivojlantirishning marketing strategiyasi ("O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati misolida). Iqt. fan. dok.dis. Avtoref., Toshkent, 2018. - 69 b.; A.B.Bobojonov. O'zbekistonda axborot mahsulotlari va xizmatlari biznesini rivojlantirishning uslubiy jihatlari. Iqt. fan. falsafa. dok.dis. avtoref., Toshkent, 2018, - 57 b.; J.S.Fayzullayev. Integratsiyalashagan transport logistika tizimini boshqarish samaradorligini oshirish ("O'zbekiston temir yo'llari" AJ misolida). Iqt. fan. falsafa. dok.dis. avtoref., Toshkent, 2019. - 56 b.; E.A.Kamolova. Совершенствование логистического управления перевозками грузов. Iqt. fan. falsafa. dok.dis. avtoref. Toshkent, 2019. - 51 b.; A.X.Ayubjonov, S.S.Saidumarxonov. O'zbekiston xizmatlar sohasi-iqtisodiyoti rivojlantirishning muhim omili.//www.http:tsue.uz; M.M.Muxammedov. Xizmat ko'rsatish sohasi va turizmi rivojlantirishning nazariy asoslari. Samarqand: Zarafshon, 2017. - 43 b.; G'.A.Samatov va boshqalar. Raqobat muhitida xalqaro transport tizimi faoliyatining logistik ishonchligi. – T.: ToshDAU nashr tahririyati bo'limi, 2003. - 82 b.; M.N.Irisbekova. Marketing tamoyillari asosida transport xizmatlar bozorini optimallashtirish uslublarini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. dis. avtoref., Toshkent, 2017. - 84 b.; Г.Ш.Ханкелдиева Методы использования маркетинговых исследований в сфере железнодорожного и пассажирского транспорта. Ж.: Бюллетень науки и практики № 5(8) 2022, - С. 489-484.; N.E.Babaxalov. Temir yo'l transporti korxonalarida buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlil uslubiyotini takomillashtirish. Iqt. fan. doktori (DSc) dok. avtoref. Toshkent, 2022. - 71 b.

rivojlanishiga ta'sir etgan asosiy omillarni aniqlash asosida O'zbekistonda temir yo'l transporti xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

xalqaro temir yo'l transporti xizmatlarida boshqaruv tizimi faoliyatining rivojlanish modeli samaradorligi, model muammolari, modelning afzal tomonlarini o'rganish asosida "O'zbekiston temir yo'llari" AJning istiqbolli rivojlantirish modelini ishlab chiqish;

temir yo'l transporti kompaniyasini raqamli transformatsiyalash sharoitida boshqaruv qarorlarining riskka moyilligini aniqlash, temir yo'l transporti xizmatlariga muqobil transport xizmatlarini qiyoslash, tizimda qo'llanilayotgan SWOT, PEST, GAP usullarida baholashni o'tkazish metodologiyasini takomillashtirish;

temir yo'l transporti xizmatlarini raqamli transformatsiyalash jarayonlarini amalga oshirilayotgan holatni aniqlash, zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish, doimiy monitoring olib borishni tashkil etish maqsadida baholash metodologiyasini ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish;

temir yo'l transporti korxonalarini faoliyatini boshqarish jarayonlarida iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida transformatsiya jarayonlarini amalga oshirish bosqichlari, qo'llaniladigan raqamli texnologiyalar, hujjatlarni rasmiylashtirishda xalqaro dasturlarni qo'llash, raqamli platformani tashkil etish, yo'lovchi va yuk tashishni rivojlantirishning raqamli transformatsiyalash modelini ishlab chiqish;

temir yo'llarning texnik-iqtisodiy ma'lumotlarini solishtirish, temir yo'l infratuzilmasini toifalash, rivojlantirish bosqichlarini ishlab chiqish, xatarlarni aniqlash, ko'p omilli ekonometrik modellarni qo'llash asosida 2030-yillarda kutilayotgan prognoz ko'rsatchilarining inersion va mobilizatsion variantlarini amalga oshirishning konseptual modelini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatining boshqaruv faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti xizmatlar bozorini rivojlantirishda boshqaruv metodologiyasini takomillashtirish bilan bog'liq tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida terminologik tahlil, omilli tahlil, SWOT-tahlil, PEST-tahlil, qiyosiy tahlil, korrelyatsion-regression tahlil, tasniflash, modellashtirish, prognozlash, kuzatish, ekspert baholash hamda tizimli, senariyli, mobilizatsion va inersion yondashuvlardan, ekonometrik tahlil va prognozashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

temir yo'l xizmatlari bozorini rivojlantirishda asosiy faoliyat turidan yordamchi faoliyatni xususiy sektor xizmatlariga o'tkazish, asosiy faoliyatni rivojlantirishda muammolari bor yo'nalishlarni davlat xususiy sherikchiligi asosida rivojlantirish, xususiy sektor va asosiy faoliyatni yagona maqsad yo'lidagi integratsiyasini ta'minlash asosida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini yaratish asoslangan;

yangi xalqaro temir yo'l yo'laklarining ochilishi munosabati bilan temir yo'llarning o'tkazuvchanligini ta'minlash, yetkazib berish xizmatlarini multimodal xizmatlar bilan muvofiqlashtirish uchun temir yo'l va avtomobil yo'llari kesishgan hududlarda temir yo'l va avto tashuvlarning integrallashtirilgan (xab) tizimini yaratish taklifi berilgan;

soha xizmatlarini tuzilmaviy 7 blokka ajratilib bajariladigan raqamli transformatsiyalashni amalga oshirish vazifalarini vaqt bo'yicha baholash mezonlariga ko'ra monitoring o'tkazish bo'yicha majmualiy metodologiyasi takomillashtirilgan;

temir yo'l transporti xizmatlari axborot tizimini identifikatsiyalash, xizmatlarni raqamli, texnologik, dasturli transformatsiyalash, xususiy sektor va

davlat xususiy sherikchilik asosida investitsiyalarni olib kirishning 3 bo‘limdan iborat transformatsiya modeli hamda modelni amalga oshirishning senariyli, besh bosqichli usullari ishlab chiqilgan;

temir yo‘l transport xizmatlariga ta’sir etuvchi ko‘p omilli ekonometrik model asosida 2030-yilga qadar hisoblangan mobilizatsion va inersion prognoz parametrlari senariysini amalga oshirishning sakkiz bosqichli konseptual modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ xo‘jalik faoliyatida xizmat ko‘rsatuvchi yordamchi tarmoqlarni xususiy sektor (austorsing)ga chiqariladi. Bu bilan temir yo‘l sohasida xususiy sektorning ishtiroki ta‘minlanadi. Asosiy faoliyatda rivojlanishdan orqada qolayotgan yo‘nalishlarga tashqaridan malakali mutaxassislarni jalb etish, davlat xususiy sherikchiligi asosida loyihalar, investitsiyalar kiritish bilan insorsing rivojlantiriladi. Outsoring va insorsing faoliyati yagona maqsad tizimda xizmatlarni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish maqsadida intergatsiyalashadi. Kompaniya boshqaruvi yangi kuch va imkoniyatlar bilan kuchaytiriladi.

Temir yo‘l logistika xablarini yaratish temir yo‘l va avtomobil tashuvlarning integrallashgan tizimini yagona makonda jamlanib xizmat ko‘rsatish sifati hamda tezligi oshadi. Temir yo‘l logistika xizmatlari xalqaro standartlar darajasiga ko‘tariladi. Logistika xizmatlari bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ishlar 2 PLdan 3PL darajaga chiqadi. Xalqaro temir yo‘l yo‘laklaridan foydalanishda tranzit hamda mahalliy yuklarni xalqaro tashuvlarida tirbandliklarning oldi olinadi. Temir yo‘l xizmatlarida logistika xabining yaratilishi logistika bilan bog‘liq barcha xizmatlar boshqaruvini “O‘zbekiston temir yo‘llari”AJ xolding kompaniyasi to‘liq o‘z zimmasiga olib, buyurtmachini bu muammodan xalos qiladi.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ xolding kompaniyasi xizmatlarini zamonaviy boshqaruv tizimiga o‘tkazish bu tizimni raqamli ham tarkibiy transformatsiyalash hisoblanadi. Shuning uchun xolding kompaniyasida raqamli transformatsiyalashni amalga oshirish ishlari doimiy baholanib turilishi, raqamli transformatsiyalash jarayonlarining mutazam monitoringini ta‘minlaydi. Bungacha “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ raqamli transformatsiyalash tizimiga solinmagan, umumiy ko‘rsatmalar asosida muammolar bo‘lim boshliqlaridan olinib, raqamlashtirish yuzasidan umumiy topshiriqlar berilgan. Bizning usulimizda raqamli transformatsiyalashni amalga oshirish majmuali, bloklar bo‘yicha tizimlashtirilgan, uni bajarilishi ham nazoratga olingan. Bu bilan tizimni raqamli transformatsiyalash jarayonlari majmuali baholash usuli asosida takomillashtirilgan.

Muallif taklifiga ko‘ra “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ kompaniyasi xolding kompaniyasiga transformatsiya qilindi. Temir yo‘l transporti xizmatlarini yangi zamonaviy texnologiyaga asoslangan boshqaruv tizimiga olib chiqish uchun uch bosqichdan iborat raqamli transformatsiyalashni amalga oshirish modeli asosida “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda xizmatlarini raqamlashtirishning haqiqiy holati tahlil qilindi. Xalqaro tajribalar asosida temir yo‘l orqali bojxona hujjatlarini rasmiylashtirishda e-Permit, EU CSW-CERTEX xalqaro dasturlariga o‘tish, mobil ilovalarga mehmonxona, ichki turizm, taksi xizmatlarini qo‘shish, aloqa tizimiga SRM-S raqamli radio datchiklarni olib kirish, transformatsiya jarayonlariga CDTO, CDO mutaxassislarini jalb qilish, bulutli xotira, haydovchisiz mashina, 3D virtual maydon, ERP tizimini joriy etish asosida jamoada korporativ madaniyatni shakllantirish takliflari ilgari surilgan.

Temir yo‘l transport xizmatlari bozorini rivojlantirishning 2030-yilga qadar prognoz parametrlari ishlab chiqilgan. Mazkur ilmiy taklifni joriy etish natijasida “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan asosiy xizmat ko‘rsatish faoliyatiga ta’sir etuvchi parametrlar, rivojlantirish senariylari sohada

strategik rejalarni qabul qilishda asos bo'lib xizmat qilgan. Ilmiy tadqiqot ishida ishlab chiqilgan taklif va amaliy tavsiyalardan "O'zbekiston temir yo'llari" AJ faoliyatining istiqbolli, maqsadli davlat dasturlari va ulardan samarali foydalanish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari tizimini ishlab chiqishda foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganilgan, umumlashtirilgan, xizmatlar bozorida temir yo'l transporti xizmatlarini rivojlantirishda, boshqaruv metodologiyasini takomillashtirish borasidagi mavjud ilmiy tadqiqot ishlarini qiyosiy va tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan, axborot bazasi milliy va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalaridan olingan. Olingan ma'lumotlar samarali tahlil usullaridan foydalanib qayta ishlangan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligi ma'lumotlariga asoslanganligi bilan izohlangan. Tadqiqotdan olingan nazariy va uslubiy xulosalar shu toifadagi tadqiqotlar xarakteriga mos keladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati "O'zbekiston temir yo'llari" AJda boshqaruv metodologiyasini takomillashtirish, tartibga solish, uning istiqbolli vo'nalishini tadqiq etish masalalariga oid maxsus ilmiy-tadqiqotni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar xizmatlar bozori rivojlanishida temir yo'l transporti boshqaruv metodologiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks dasturlar uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni "O'zbekiston temir yo'llari" AJ xolding kompaniyasi, O'zbekiston Transport vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimidagi xizmatlarni samarali boshqarish bilan bog'liq bo'lgan sohalarda, xizmat faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarda xizmatlar faoliyatini tahlil qilish, xizmatlarni raqamli texnologiyalar asosida transformatsiyalashda, outsorsing faoliyatini tashkil etish, boshqaruv qarorlarini samarali tatbiq etish asosida xizmatlar bozorini takomillashtirish, xavflarni aniqlash, qisqa va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarni ishlab chiqish, oliy o'quv yurtlarida "Temir yo'l transporti iqtisodiyoti va menejmenti", "Temir yo'l transporti infratuzilmasi" kabi fanlardan o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashda ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ioriv qilinishi. Xizmatlar bozorini rivojlantirishda boshqaruv metodologiyasini takomillashtirish ("O'zbekiston temir yo'llari" AJ misolida) bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

temir yo'l xizmatlari bozorini rivojlantirishda asosiy faoliyat turidan yordamchi faoliyatni xususiy sektor xizmatlariga o'tkazish, asosiy faoliyatni rivojlantirishda muammolari bor vo'nalishlarni davlat xususiy sherikchiligi asosida rivojlantirish, xususiy sektor va asosiy faoliyatni yagona maqsad yo'lidagi integratsiyasini ta'minlash asosida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini yaratish O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi (O'zbekiston Transport vazirligi 2025-yil 29-may № 4/5966-son ma'lumotnoma), "O'zbekiston temir yo'llari" AJ ("O'zbekiston temir yo'llari" AJ 2025-yil 5-may № 065-984-25-son ma'lumotnoma) va O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi 2023-yil 17-avgust № 01/00-0328-7578-son xati) tomonidan amaliyotga joriy etilgan. Mazkur taklifni amalga oshirish natijasida temir yo'l sohasiga xususiy sektorni keng jalb qilish va xizmatlar sifatini raqobatbardosh narxlar asosida belgilashga erishildi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11-sentabr 2023-yil PQ-300 son Qarori 53-maqsad 19-bandining 1-amaliy chora-tadbiriga kiritildi (O'zbekiston "Taraqqiyot strategiyasi" markazi, 2023-yil 16-oktyabr № 3-son dalolatnoma);

yangi xalqaro temir yo'l yo'laklarining ochilishi munosabati bilan temir yo'llarning o'tkazuvchanligini ta'minlash, yetkazib berish xizmatlarini multimodal

xizmatlar bilan muvofiqlashtirish uchun temir yo‘l va avtomobil yo‘llari kesishgan hududlarda temir yo‘l va avto tashuvlarning integrallashgan (xab) tizimini yaratish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligiga (O‘zbekiston Transport vazirligi 2025-yil 29-may № 4/5966-son ma’lumotnoma), “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJga (“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ 2025-yil 5-may № 065-984-25-son ma’lumotnoma) joriy etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son Qarori 53-maqsadi 19-bandining 6-amaliy chora-tadbiriga kiritildi (O‘zbekiston “Taraqqiyot strategiyasi” markazi 2023-yil 16-oktyabr № 3-son dalolatnoma). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida temir yo‘l xizmatlarida logistika xizmat ko‘rsatish tizimi yangi bosqichga ko‘tariladi. Mazkur taklif asosida O‘zbekistonda logistik xablar yaratiladi;

soha xizmatlarini tuzilmaviy 7 blokka ajratilib bajariladigan raqamli transformatsiyalashni amalga oshirish vazifalarini vaqt bo‘yicha baholash mezonlariga ko‘ra monitoring o‘tkazish bo‘yicha majmualiy metodologiyasi O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tomonidan (O‘zbekiston Transport vazirligi 2025-yil 29-may № 4/5966-son ma’lumotnoma), “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJga (“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ 2025-yil 5-may № 065-984-25-son ma’lumotnoma) joriy etilgan. Mazkur taklifni amalga oshirish natijasida raqamli transformatsiyalash holatiga baho berish orqali tizimning nazorti hamda tizim (xizmatlari)dagi muammolarni o‘z vaqtida aniqlash imkoni yaratildi, boshqarishda yuqori samaradorlikka erishildi. Baho berish usuli orqali boshqarish tizimi 2 barobarga tezlashdi;

temir yo‘l transporti xizmatlari axborot tizimini identifikatsiyalash, xizmatlarni raqamli, texnologik, dasturli transformatsiyalash, xususiy sektor va davlat xususiy sherikchilik asosida investitsiyalarni olib kirishning 3 bo‘limdan iborat transformatsiya modeli hamda modelni amalga oshirishning senariyli, besh bosqichli usullari O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tomonidan (O‘zbekiston Transport vazirligi 2025-yil 29-may № 4/5966-son ma’lumotnoma), “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJga (“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ 2025-yil 5-may № 065-984-25-son ma’lumotnoma) joriy etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son Qarori 53-maqsadi 19-bandining 5-amaliy chora-tadbiriga kiritildi (O‘zbekiston “Taraqqiyot strategiyasi” markazi 2023-yil 16-oktyabr 3-son dalolatnoma). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida yuk tashish logistika xizmatlarini 20 foizga, temir yo‘l xizmatlari samaradorligini 5-10 foizga oshishiga olib kelgan;

temir yo‘l transport xizmatlariga ta’sir etuvchi ko‘p omilli ekonometrik model asosida 2030-yilga qadar hisoblangan mobilizatsion va inersion prognoz parametrlarini senariy asosida amalga oshirishning sakkiz bosqichli konseptual modeli O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi (O‘zbekiston Transport vazirligi 2025-yil 29-may № 4/5966-son ma’lumotnoma), “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ (“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ 2025-yil 5-may № 065-984-25-son ma’lumotnoma) tomonidan foydalanildi. Mazkur ilmiy taklifni joriy etish natijasida “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan asosiy xizmat ko‘rsatish faoliyatiga ta’sir etuvchi parametrlar aniqlandi va sohada strategik rejalarni qabul qilishda asos bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot 13 ta xalqaro, 17 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Dissertatsiya natijalarining e’lon qilinishi. Tadqiqot ishi mavzusi bo‘yicha jami 55 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta monografiya O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiva etilgan ilmiy nashrlarda 21 ta ilmiy maqola (14 ta respublika va 7 ta xorijiy jurnallarda) e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rt asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Uning umumiy hajmi 246 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va ilmiy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi **“Xizmatlar bozorini rivojlantirishda boshqaruv metodologiyasini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, unda xizmatlar bozorini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining metodologik asoslari, temir yo‘l transportini boshqarish, rivojlanishi va xususiyatlari, xizmatlar bozori boshqaruv mexanizmini takomillashtirish, raqamli transformatsiyalashning ahamiyati, xizmat ko‘rsatish korxonalarini boshqaruvida qo‘llanilayotgan nazorat, baholashdagi ilmiy-uslubiy asoslar tadqiq qilingan.

Ilmiy adabiyotlarda “xizmatlar bozori” tushunchasi “xizmatlar”, “xizmatlar sohasi”, “savdo xizmatlari” kabi tushunchalar bilan farqlansa, “boshqaruv metodologiyasi” tushunchasi “boshqarish usuli”, “boshqarish mexanizmi”, “tashkiliy mexanizm”, “iqtisodiy mexanizm”, “boshqarish texnologiyasi”, “boshqarish strategiyasi” kabi tushunchalar bilan farqlanadi⁷. Shuningdek, xizmatlar bozorini rivojlantirishda boshqaruv metodologiyasini takomillashuvi quyidagi tushunchalar orqali shakllanadi: “tashkiliy mexanizm”, “iqtisodiy mexanizm”⁸, “takomillashtirish”, “boshqarish strategiyasi”, “temir yo‘l transporti xizmatlari boshqaruv usullari”. Iqtisodiy adabiyotlarda, ilmiy–tadqiqot ishlarida “boshqaruv metodologiyasi” tashkiliy–iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish mexanizmi sifatida⁹, aniq voqeylik, harakat, jarayon va hodisalar asosida shakllanishi, tizimlar faoliyati ketma-ketligini aniqlaydi. Xizmatlar bozorida xizmatlarni harakatlantiruvchi asosiy lokomotiv xizmat ko‘rsatish tarmoqlaridan biri temir yo‘l transporti hisoblanganligi sababali, ilmiy tadqiqot ishining asosiy mazmuni temir yo‘l transporti bilan bog‘liq ravishda olib borilganligi tadqiqotning maqsadini oydinlashtirgan. Temir yo‘l transporti xizmatlari tizimini yangi bosqichga olib chiqish murakkab vazifa sanaladi. Temir yo‘l transporti xizmatlarining rivojlanishini ta‘minlashda doimiy ravishda boshqaruv funksiyalari, usullariga yangidan yangi innovatsion elementlarini kiritish bilan boshqarish mexanizmlari takomillashtirilib boriladi. Birinchi maqsad yuqori sinergetik samaradorlikka erishishdir. Ushbu sinergetik samaradorlikni quyidagi formula¹⁰ yordamida aniqlash maqsadga muvofiq.

$$S_{sam} = \left(\sum_{t=1}^n Q_t X_b \right) \left(\sum_{t=1}^n X_b \right)$$

Bu yerda: S_{sam} = sinergetik samaradorlik

n- faktorlar soni

t- sinergetik faktor bali

⁷ Sinonim. [Elektron manba]: <https://sinonim.org/s/методы%20управления>. (qaraldi 18.02.2024).

⁸ И.Ибрагимов. Организационно-экономический механизм. Ж.: Экономика и социум, № 12 (91)-1, 2021. С. 1047-1050.

⁹ Л.Ю.Верещагина. Методология и инструментарий развития организационно-экономического механизма управления промышленным предприятием. авт. дис. доктора экономических наук. Саратов, 2012. - 48 с.

¹⁰ Muallif formulasi.

Q_t = sinergetik faktorlarga qo'yilgan o'rtacha ball

X_b =barcha sinergetik faktorlarga qo'yilgan ball

Temir yo'l transporti xizmatlari boshqaruvida yuqori sinergetik samardorlikka erishish uchun unga ta'sir etuvchi omillarni, temir yo'l transportidagi ayrim ishlaymay turgan mexanizmlarni ishlatib, boshqaruv samaradorligini ta'minlashimiz zarur bo'ladi. Bunda sinergetik samardorlik ball tizimida aniqlanadi. Masalan, faktorlar soni 10 ta bo'lsa, ball ham 10 balgacha qo'yiladi. 50 foiz ball qiymatida baholansa, sinergetik samardorlik past, 70 foiz ball, yig'ilsa, o'rta darajada, 100 foiz strategik reja bajarilganligini anglatadi.

Ushbu usul yordamida jarayonlarni sinergetik baholash imkoni yaratilgan.

Korxonaning asosiy faoliyati boshqaruv metodlari yordamida shakllanib boradi.

Fikrimizcha, yuqoridagilardan kelib chiqib, bevosita temir yo'l transporti xizmatlarini rivojlantirishning boshqaruv sinergetikasini quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq (1-rasm).

"Ilmiy menejment" maktabi namoyondalaridan Amir Temur: "Boshqa mamlakatlarning raqobatini yengib, Movarounnahrning siyosiy-iqtisodiy quvvatini ta'minlay oladigan markazlashgan davlatni tashkil etishda xalqaro karvon yo'llarining siyosiy ahamiyatga ega ekanligini",¹¹ - ta'kidladi. Yo'llarni nazorat ostiga oldi, xavfsizligini ta'minlash, obodonlashtirish ishlarini tashkilladi, karvon yo'llarida Sharq mamlakatlari va ayniqsa, Ovro'po mamlakatlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatib, ular bilan savdo-sotiq, madaniy aloqalarga yanada keng yo'l ochib berdi. "Ushbu transmintaqaviy yo'l insoniyat tarixida ilk bor G'arb va Sharqni, O'rta Yer dengizi va Uzoq Sharq mamlakatlarini, antik va Xitoy sivilizatsiyasini o'zaro bog'ladi"¹².

O'zbekiston iqtisodiyoti jahon iqtisodiyoti bilan integratsiyalashib borayotgan sharoitda temir yo'llarda islohotlar olib borish uchun aniq strategiya va kuchli tarkibiy boshqaruv mexanizmi talab qilinadi. Bu borada O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi professori D.Rahimova: "O'zbekiston transport tizimi jahon transport tizimiga faol integratsiyalashuvi va qo'shni davlatlar transport-kommunikatsiya tizimlarini yaqinlashtirish siyosatini amalga oshirish zaruratidan kelib chiqishi kerak"¹³, - degan fikr berdi.

Muallifning fikricha, xizmatlar bozorida temir yo'l transporti xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini bosqichma-bosqich, tizimli va uzluksiz ravishda takomillashtirib borish orqali quyidagilarga erishishi mumkin:


- Respublikada temir yo'l transporti xizmatlari boshqaruvini yagona maqsadga birlashtirib, xizmatlar bozoridagi rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, muammolarni hal etilishida yagona majmua tariqasida yondashib, yagona markazlashgan boshqaruv ta'minlanadi;

- Xizmatlar bozorida temir yo'l transporti xizmatlarini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishda maqsadli boshqaruv asosida yuqori sinergetik samardorlik ta'minlanadi.

¹¹<https://e-tarix.uz/shaxslar/446-> (qaraldi 22.01.2022)

¹²Komilov A.X. O'zbekiston diplomatiyasi tarixi (qadimgi zamonlardan hozirgi kungacha). 6-jild. T.: O'zbekiston, 2019. - 508 b.

¹³ Рахимова. Д.Н. Интеграция железнодорожного транспорта Узбекистана в международную систему. [Elektron manba]: <https://review.uz/post/integraciya-jeleznodorojnogo-transporta-uzbekistana-v-mejdunarodnuyu-sistemu> (qaraldi 27.01.2022).



1-rasm. Temir yo‘l transporti xizmatlari boshqaruvini sinergetik takomillashtirish¹⁴.

Dissertatsiya ishining “Xizmatlar bozorida o‘zgarishlar, tendensiyalar va ularning tahlili” nomli ikkinchi bobida O‘zbekiston xizmatlar bozori boshqaruv tizimidagi islohotlar, xalqaro temir yo‘l transporti boshqaruv tizimi va faoliyati samadorligi, O‘zbekiston xizmatlar bozorini rivojlantirishda temir yo‘l transportining o‘rni va ahamiyatining tahlili tadqiq etilgan.

Jahon iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohasining yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushiga ko‘ra mamlakatlar to‘rtta guruhga (1-jadvalga qarang) ajratilib tahlil qilindi.

Ushbu jadval orqali muallif rivojlangan davlatlarda xizmatlar bozorining rivojlanish darajasini xorijiy davlatlardagi holat bilan qiyoslagan.

¹⁴ Muallif ishlanmasi.

**Yalpi ichki mahsulotga nisbatan xizmatlar ulushiga ko'ra
2023-yilda ayrim davlatlarning guruhlanishi¹⁵**

| Xizmatlar bozori rivojlanmagan | | Xizmatlar bozori qisman rivojlangan | | Xizmatlar bozori rivojlangan | | Xizmatlar bozori yuqori rivojlanish bosqichida | |
|---|-----------|-------------------------------------|-------|------------------------------|-------|--|-------|
| Davlatlar | % | Davlatlar | % | Davlatlar | % | Davlatlar | % |
| Qirg'iziston | 50,8 | Turkiya | 54,05 | Italiya | 64,92 | Fransiya | 69,24 |
| Hindiston | 49,8 | Rossiya | 56,88 | Singapur | 72,5 | Buyuk Britaniya | 72,84 |
| Eron | 42,8 | | | | | | |
| O'zbekiston | 41,1 | | | | | | |
| Shuningdek, Afg'oniston, Kongo, Angola davlatlari | Juda past | Xitoy | 54,6 | Turkmaniston | 68,4 | Shvetsariya | 71,89 |
| | | Qozog'iston | 55,97 | | | Isroil | 72,45 |
| | | Janubiy Koreya | 58,42 | | | Yaponiya | 75,9 |
| | | Germaniya | 62,57 | | | AQSh | 74,7 |
| | | JAR | 62,98 | | | | |

O'zbekiston YIMsi tarkibidagi xizmatlarning ulushi janonda rivojlangan davlatlar, shuningdek, qo'shni Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston davlatlari ulushidan ham past. Muallif YIM tarkibida xizmatlar ulushi yuqori bo'lgan AQSh iqtisodiyotini ilmiy tadqiq etib, AQSh iqtisodiyoti taraqqiyotining 60 yillik davrini tahlil etgan ESSEC Biznes maktabi iqtisodiyot kafedrasini ilmiy dotsenti, iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish bo'yicha fan, texnologiyalar va innovatsiyalar tashkiloti departamenti iqtisodchisi Juzeppe Berlingiyerining tahliliy ma'lumotlari bilan tanishib chiqib, uning quyidagi xulosalarini havola etgan: "O'zbekiston temir yo'llari" AJ uchun asosiy faoliyatdan tashqari bo'lgan faoliyatni outsorsingga chiqarish joyizmi yoki insorsingda qoldirishmi buni aniqlashda quyidagi metodikadan foydalanish (2-jadvalga qarang) tavsiya qilingan

"Asosiy kuchlardan biri bu outsorsingdir. Agar ishlab chiqarish firmasi o'z Bosh-sho'basini xizmatlarining bir qismini outsorsing qilsa, xizmatlardan oraliq foydalanish ko'payadi, chunki bu ma'lumotlar xizmatlarga ixtisoslashgan firmalardan sotib olinishi mumkin"¹⁶, - deb yozadi hamda AQSh iqtisodiyotida outsorsing xizmatlaridan foydalanish xizmat ko'rsatish bandligi umumiy o'sishining 36 foizini va ishlab chiqarishdagi bandlikning 25 foizga pasayganligini ta'kidlaydi. Lekin ushbu holat ishlab chiqarishning iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sir etmagan holda mamlakatda xizmatlar ulushining ortishiga, kasbiy va biznes xizmatlari iqtisodiyotning qolgan qismiga eng katta ta'sir ko'rsatadigan sanoatga aylanganligini ta'kidlaydi.


Ushbu ilmiy asoslangan tajribalarga tayanib, muallif outsorsing va insorsingni "O'zbekiston temir yo'llari" AJ xolding kompaniyasi islohotlariga olib kirish zarurligi to'g'risidagi xulosaga keladi. Muallifning "O'zbekiston - 2030" taraqqiyot strategiyasiga bergan taklifi "Temir yo'l sohasiga xususiy sektorni keng jalb qilish va xizmatlar sifatini raqobatbardosh narxlar asosida belgilash"¹⁷ aynan outsorsing va davlat xususiy sherikchiligi asosida insorsingni qo'llash bilan maqsadga erishish mumkinligini ilmiy asoslaydi. "O'zbekiston temir yo'llarini" AJ xolding kompaniyasiga xususiy sektorni keng jalb qilishda O'zbekiston uchun xos bo'lgan "o'zbek modeli" ishlab chiqilgan. Ushbu modelga asosan "O'zbekiston temir yo'llari" AJ faoliyatini to'liq taftishdan o'tkazadi, faoliyatdan asosiy hamda yordamchi faoliyat turlari ajrtiladi. Yordamchi faoliyaning ayrim

¹⁵Muallif tomonidan tizimlashtirildi. Доля сфер услуг-Классация стран. [Elektron manba]; https://ru.theglobaleconomy.com/rankings/Share_of_services/ (qaraldi 17.02.2024).

¹⁶ Juzeppe Berlingieri. Outsourcing and transition from manufacturing to services. 2014. [Elektron manba]; <https://cepr.org/voxeu/columns/outsourcing-and-shift-manufacturing-services>.

¹⁷ Muallif tomonidan kiritilgan taklif. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 - yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini 2023 - yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-300-sonli qarori 53-maqsadning 19-bandini 1-amaliy chora-tadbiri.

yoʻnalishlari komissiya qaroriga koʻra outsorsingga chiqadi, asosiy faoliyatdagi muammoli yoʻnaloshlarda tajribali mutaxassis yoki shtabli boshqaruvga ehtiyoj aniqlangan taqdirda faoliyatni jonlantirish maqsadida insorsingni olib kiradi. Temir yoʻl transport xizmatlari bozorini rivojlantirishda outsorsing hamda insorsingga yoʻnaltirilgan faoliyatining oʻzaro integratsiyalashuvi sohani modernizatsiyalashni taʼminlaydi (2-rasmga qarang).



2- rasm. Autorsing va insorsingni tashkiliy mexanizmi modeli¹⁸.

Ushbu model: “Integratsion–innovatsion yangilanish strategiyasi”- deb nomlangan. Autorsing hamda insorsing faoliyatini tashkil etish rejaları ishlab chiqilganidan soʻng, sohaning integral uygʻunligi taʼminlanishi izohlangan.

2-jadval

“Oʻzbekiston temir yoʻllari” AJda xizmatlarni xususiy sektor (autorsing) yoki davlat xususiy sherikchiligi (insorsing)ga xizmatlariga oʻtkazish toʻgʻrisida qaror qabul qilishda qoʻllaniladigan usul¹⁹

| Bosqichlar | Amalga oshiriladigan ishlar |
|------------|--|
| 1 | “Oʻzbekiston temir yoʻllari” AJ qaysi faoliyat turini autorsingga berish zarurligi toʻgʻrisida boshlangʻich qaror qabul qiladi. |
| 2 | Autorsing uchun ajratishga maʼqul koʻrilgan faoliyat turida bajariladigan vazifalar va oʻrtacha narx hisob-kitob qilinadi: Σ_n |
| 3 | Ishni bajarishni minimal va maksimal meʼyorlari hisoblab chiqiladi: Σ_n^{max} yoki Σ_n^{min} |
| 4 | Oʻrtacha xizmatlarni bajarish qiymati boʻyicha minimal va maksimal meʼyordan oʻrtacha indeksi (I_n) hisoblab chiqiladi: $I_n = \frac{\Sigma_n^{fakt} - \Sigma_n^{min}}{\Sigma_n^{max} - \Sigma_n^{min}}$ |
| 5 | Aniqlangan intervallar [0;1] aniqlikda boʻlib, bu intervallarni autorsing kompaniyasi tomonidan taklif qilinayotgan narxga solishtirish mumkin boʻladi. Oʻrtacha indeks koʻrsatkichi qaysi tomonda yuqori boʻlsa, oʻsha tomonga oʻtkaziladi. $N \cdot I = \frac{1}{N} \times \Sigma_{n=1}^N I_n$. N – sifatning xususiy standart koʻrsatkichlari qoʻyiladi. |

¹⁸ Muallif ishlanmasi.

¹⁹ Muallif ishlanmasi.

Keyingi usul: Xizmatlarni qiyoslash usuli bo‘lib, qiyosiy tahlil o‘tkazishda qo‘llaniladigan jadval quyidagi usulda to‘ldiriladi, (3-jadvalga qarang).

3-jadval

“Andijon-Toshkent” yo‘nalishidagi poyezdlarni joriy ta‘mirlash uchun taklif qilinayotgan narxlarning 2024- yil qiyosiy tahlili²⁰ (mln.so‘m)

| Ko‘rsatkichlar | “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ o‘z kuchi bilan bajarganida | Autsorsing kompaniyasi bajarganida | Iqtisod qilinadi (+;-) |
|-----------------------|---|------------------------------------|------------------------|
| Ish haqi xarajatlari | 78555 | 67500 | 11055 |
| Xomashyo | 22725 | 15000 | 7725 |
| Amortizatsiya | 2300 | 1500 | 800 |
| Transport xarajatlari | 12000 | 10000 | 2000 |
| Boshqalar | 7000 | 5000 | 2000 |
| Jami: | 120280 | 99000 | 21280 |

Qaysi usuldan foydalanishni kompaniya o‘zi tanlaydi. Shuni e‘tiborga olish lozimki, loyihalar soni va turi ko‘payib ketishi mumkin, unda ikkinchi usulda hisoblash murakkabroq bo‘ladi, shuning uchun birinchi usuldan foydalangan ma‘qul. Birinchi usulda natijalar indekatorlar yordamida aniqlansa, ikkinchi usulda jadvallar yordamida aniqlanadi.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda autsorsing xizmatlarining integratsiyalashuvi sohani modernizatsiyalash imkonini berib, uni ma‘lum darajda yangi taraqqiyot sari harakatlanishga zamin hozirlaydi (4-jadvalga qarang).

4-jadval

Xususiy sektorni (autsorsing asosida) va davlat xususiy sherikchiligini (insorsing asosida) joriy etish natijasida erishiladigan yutuqlar²¹.

| “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ uchun qulay tomoni | Davlat iqtisodiyoti uchun qulay tomoni |
|--|--|
| Qo‘shimcha rejalashtirish, loyiha qilish, hisob-kitob yuritish, obodonlashtirish, tozalash, servis xizmati va bir qator bajariladigan ishlar autsorsingga va asosiy faoliyatning muammoli yo‘nalishlari insorsingga chiqariladi. | YIM hajmida xizmatlarning ulushi ortadi. Statistik hisob-kitoblarda o‘zgarishlar bo‘ladi. Temir yo‘llarda autsorsing (xususiy sector) va insorsing (DXSH) kompaniyalari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hisobi yuritiladi. YIMda xizmatlar ulushi ortadi. |
| “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ xolding kompaniyasida faqat boshqarish, tashkilashtirish, strategik rejalashtirish, nazorat va motivatsiya ishlari qoladi. | Investitsiya maqsadli yo‘naltiriladi. Moliyaviy nazorat o‘rnatiladi. Qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratiladi. Davlat xususiy sherikchilik asosida kompaniya boshqaruvida ishtirok etadi. Temir yo‘l ihfratuzimasini rivojlantirishga oid o‘quv markazlari, tajriba-sinov makazlar faollashadi. |
| Autsoaringga yuqori malakali, tajribali xizmatchilar jalb etiladi, tor mutahassislarning professional darajasi ortadi. Professional xizmat turiga o‘tish bilan xizmatlar yahgi bosqichga o‘tadi. | Xizmatlar bozorida xususiy tadbirkorlik rivojlanadi. Mazkur yo‘nalishda raqobat vujudga keladi. Davlat xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash asosida tadbirkorlikning yangi bosqichiga yo‘l ochiladi. |

Muallif 2018-2023-yillarda temir yo‘l transporti orqali tashilgan yuklar salmog‘ini boshqa transport vositalari salmog‘iga solishtirgan. Temir yo‘llar orqali tashilgan yuklar jami transport vositalarida tashilgan yuklarning 5 foiziga to‘g‘ri kelgan (3-rasmga qarang).

Ushbu holat jahon davlatlari bilan solishtirganimizda Buyuk Britaniyada 36,5%²², G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida yuk tashish hajmi bo‘yicha avtomobil transporti 40 foiz, temir yo‘l transporti 25 foiz²³, Rossiya Federatsiyasida temir

²⁰ Muallif ishlanmasi.

²¹ Muallif ishlanmasi.

²² Грузооборот на железных дорогах Великобритании превысил доковидный уровень. [Elektron manba]: <https://zdmira.com/news/gruzooborot-na-zheleznykh-dorogakh-velikobritanii-prevysil-dokovidnyj-uroven>

²³ Аналитический доклад. Анализ мирового рынка транспортных услуг. [Elektron manba]: <https://eec.eaunion.org/medialibrary/proekt-doklad-po-mezhdunarodno-opyta/>. (qaraldi 19.03.2024).

yo‘l transportining ulushi 17 foiz²⁴, Qozog‘iston 15 foiz²⁵ tashkil etib, bu holat bo‘yicha O‘zbekiston temir yo‘l va avtomobil transporti foiz ko‘rsatkichlari bo‘yicha xizmat ko‘rsatish darajasinihg pastligi aniqlangan. Tadqiqotchi O‘zbekiston temir yo‘l transportidagi ushbu holatni rivojlangan davlatlarning tajribalaridan kelib chiqqan holda rivojlantirish maqsadida Yevropa davlatlaridagi temir yo‘l transportining rivojlanishi, shakllanishi, boshqaruv tizimidagi o‘zgarishlar natijasida amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijalarini o‘rganib, tahlil qilib chiqqan.



3-rasm. Magistral temir yo‘l hamda avtomobil yo‘liga ortilgan yuklar ulushi¹

Yevropa davlatlarida temir yo‘l xizmatlari boshqaruvidagi rivojlanish modellari (5-jadvalga qarang), islohotlar tahlili amalga oshirilib, tizimda qo‘llanilgan asosiy boshqaruv usullari voritilgan:

1. Kompaniyani to‘liq bo‘linishi asosida faolivati qavtdan tashkil etilgan.
2. Komanivani tashkiliv bo‘linishi asosida, va’ni, infratuzilmadan foydalanish huquqi bilan xolding kompaniyasi sifatida faoliyatni qayta tashkil etish asosida tizim transformatsiya qilingan.
3. Kompaniyada vertikal intergatsiyalashgan faoliyatni tashkil etish shaklida rivojlantirilgan.

5-iyadval

Yevropa davlatlari temir yo‘l transporti xizmatlarining rivojlanish modeli²⁶

| To‘liq bo‘linish asosida | Tashkiliy bo‘linish | | Vertikal – integratsiyalashgan kompaniyalar ko‘rinishida |
|--------------------------|--|----------------------------|--|
| | Infratuzilmadan foydalanish huquqi bilan | Xolding kompaniya sifatida | |
| (Shved modeli) | (Fransiya modeli) | (Germaniya modeli) | |
| Buyuk Britaniya | Fransiya | Avstriya | Irlandiya |
| Finlandiya | Chexiya | Belgiya | Shimoliy Irlandiya |
| Daniya | Estoniya | Germaniya | |
| Niderlandiya | Vengriya | Italiya | |
| Norvegiya | Sloveniya | Latviya | |
| Ispaniya | Lyuksemburg | Polsha | |
| Portugaliya | | Gretsiya | |
| Slovakiya | | | |
| Litva | | | |
| Shvetsiya | | | |

Xalqaro temir yo‘l kompanivalari tomonidan temir yo‘l xizmatlarini rivojlantirish modelini qo‘llash natijasida temir yo‘l xizmatlari yuqori samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishgan (6-jadvalga qarang).

²⁴Новая логистическая реальность: как изменилась железнодорожная логистика? [Elektron manba]; <https://delprof.ru/press-center/open-analytics/novaya-logisticheskaya-realnost-kak-izmenilas-zheleznodorozhnaya-logistika/> (qaraldi 19.05.2024).

²⁵Обзор железнодорожной отрасли. [Elektron manba]; https://halykfinance.kz/download/files/analytics/AC_railways.pdf

²⁶ Опыт реформирования железных дорог в странах СНГ и Восточной Европы. С доклада председателя подкомитета по железнодорожному транспорту ТПП РФ, доцент РУТ (МИИТ) к.э.н. Е.В.Реутов. Торгово-промышленная палата Российской Федерации. [Elektron manba]; <https://www.hse.ru/data/2018/12/17/1144585249/attachment.ashx-5.pdf> (qaraldi 27.09.2023).

Islohotlar natijasida erishilgan samaradorlik²⁷

| Davlatlar | Qaysi davr uchun (yillar) | Mehnat unumdorligining o'sishi | Aktivlardan foydalanishning o'sishi | Yo'lovchi tashishning o'sishi. km |
|-----------------|---------------------------|--------------------------------|-------------------------------------|-----------------------------------|
| Fransiya | 1994-99 | +15,9% | +11,8% | +13,3% |
| Daniya | 1994-99 | +102,2% | +7,1% | +5,7% |
| Buvuk Britaniya | 1994-99 | +95,1% | +19,6% | +21,8% |
| Germaniya | 1994-99 | +80,7% | +19,0% | +18,3% |
| | | | | |

6-iadval ma'lumotlaridan ko'rib turganingizdek, islohotlarda boshqaruvning to'g'ri tanlanganligi temir yo'l xizmatlarining rentabellik darajasini oshirgan. Masalan, Germaniya temir yo'llarida yo'lovchi tashish 18.3 foizga, aktivlardan foydalanish 19 foizga o'sgan. Buvuk Britaniyada 21.8 foizga yo'lovchi tashish o'sgan bo'lsa, aktivlardan foydalanish 19.6 foizga o'sgan. Demak, "O'zbekiston temir yo'llari" AJda ham jahon tairibalaridan foydalanib, islohotlarni yangi zamonaviy modellar asosida tashkil etish foydadan xoli emasligini anglatadi. Muallif temir yo'l transporti xizmatlarini yangi zamonaviy bosqichga olib chiqishda outsourcing va insourcingning o'zaro integratsiyasi "O'zbekiston temir yo'llari" AJ xolding kompaniyasi boshqaruvida mutlaqo yangi boshqaruv tizimini olib kirishni ilmiy asoslagan holda ushbu xolding kompaniyasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan ikkinchi muammo yangi temir yo'l, qaysiki "O'zbekiston-Qirg'iziston – Xitoy", "O'zbekiston -Afg'oniston – Pokiston", "Belorus - Rossiya -Qozog'iston-O'zbekiston-Afg'oniston-Pokiston", "O'zbekiston-Turkmaniston-Eron-Turkiya" yo'laklari to'liq quvvatda ishlay boshlaganida temir yo'l izlarida poyezdlar harakatining ortishi hisobiga tirbandliklar vujudga kelishini oldindan anglab, kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolarni hal etishda temir yo'l logistika xablarini yaratish asosida ma'lum darajada ushbu masalalarga echim topish mumkinligini asoslagan. Bu masalada temir yo'l transporti xizmatlari yo'nalishida ilmiy-tadqiqot olib borgan olimlar va ekspertlarning fikrlarini o'rgangan. Jumladan, Rossiya transport vositalari sharhlovchisi i.f.n. I.Polyakova: "Avtishimiz mumkinki, har xil xablar kerak, har xil markazlar muhim, avniqsa, bu transport yo'nalishi endigina rivoilana boshlagan mamlakat bo'lsa"²⁸ –deb ta'kidlavdi. L.E.Yeremeveva: "Agar biz temir yo'l transportiga muroiaat qiladigan bo'lsak, transport modeli kamaytirish uchun transport xarajatlari - shuttle xizmatlari va transport uzellarini ioriv etishimiz lozim"²⁹. - deb ta'kidlavdi. P.V.Medvedev: "Temir yo'l vokzallari negizida transport hablarini rivoilantirishning zamonaviy tendensiyalaridan biri bu "shahar ichidagi shahar" tushunchasi (masalan, Venadagi bosh temir yo'l vokzalining lovihasi). Ushbu konsersiva xab hududida ofis binolari, chakana savdo va madaniv iovlar, avtoturargohli mehmonxonalar, velovo'laklar tarmog'i, pivodalar uchun yo'llarni maxsus o'tkazgichlar bilan iihozlash. Transport xablarini bundav tashkil etish stansiyalar sig'imini va transport tizimi samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, har doim ham o'lchab bo'lmaydigan va miqdoriy jihatdan baholab bo'lmaydigan

²⁷ Опыт реформирования железных дорог в странах СНГ и Восточной Европы. С доклада председателя Подкомитета по железнодорожному транспорту ТПП РФ, доцент РУТ (МИИТ) к.э.н. Е.В.Реутов. Торгово-промышленная палата Российской Федерации. [Elektron manba]: <https://www.hse.ru/data/2018/12/17/1144585249/attachment.ashx-5.pdf> (qaraldi 27.09.2023).

²⁸ И.Полякова. Хабы всякие нужны, хабы всякие важны. <https://transportrussia.ru/razdely/logistika/9181-khaby-vsyaokie-nuzhny-khaby-vsyaokie-vazhny.html> (qaraldi 22.01.2024).

²⁹ Интермодальные и мультимодальные перевозки. Учебное пособие / Л. Э. Еремеева; Сыкт. лесн. ин-т. — Электрон. дан. — Сыктывкар: СЛИ, 2014. — 144 с.

qator qo‘shimcha ijtimoiv va iqtisodiv manfaatlar va afzalliklarni varatadi”³⁰ – deb izoh bergan. Katta Rossiya ensiklopediyasida: “Temir yo‘l xabi — bir necha temir yo‘l linivalarining (kamida uchasi) tutashuvchi, o‘tish yo‘llari orqali ulangan, bir qancha yo‘nalishdagi temir yo‘l infratuzilmasining kesishishi yoki tutashish nuqtasi”³¹, - deb ta’rif berilgan. V.Ye.Shvedov: “Yevropada bunday xablarni tashkil etishda davlat xab faoliyatini rejalashtiradi, nazorat qiladi, investitsiya kiritadi, hudud, bojxona va boshqa organlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadi”³².

4-rasm. Temir yo‘l xabining tashkiliy boshqaruv tuzilmasi³³.

| Temir yo‘l xabining tashkiliy boshqaruv tuzilmasi | | | | | |
|---|---|-------------------------------------|--|---|--|
| Boshqarish tizimi | | | | | |
| “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ xolding kompaniyasi | | | | | |
| Hamkor tashkilot va korxonalar | | | Temir yo‘l mustaqil xo‘jalik subyektlari | | |
| Davlat va mahalliy hokimiyat organlari O‘zbekiston havo yollari aviakompaniyasi O‘zbekiston bojxona qo‘mitasi Xalqaro logistika kompaniyalari Davlat soliq qo‘mitasi va hududiy bo‘limlari Transport ekspeditorlik kompaniyalari Avtomobillarni yoqilg‘i bilan ta‘minlash firmalari Huquqshunoslik bilan shug‘ullanuvchi firmalar Konsalting firmalar OAV, radio, televideniya O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalari va firmalari O‘zbekiston markaziy banki va filiallari Logistika kompaniyalari Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazlari | | | “Temir yol infratuzilma” AJ “Temir yo‘l kargo” AJ “Temir yo‘l yo‘lovchi” AJ “Temir yo‘l vokzallari” MCHJ “Shahar atrofi yo‘lovchi tashish” MCHJ “Temir yo‘l ijtimoiy xizmatlar” MCHJ | | |
| | | | Xizmat ko‘rsatuvchi autsorsing korxonalari | | |
| | | | Bojxona nazorati va rasmiylashtirish xizmatlari SES, veterinariya xizmatlari Sertifikatlashtirish xizmatlari Mehmonxona xizmatlari Biznes markazlari Umumovqatlanish va savdo xizmatlari Turli servis xizmatlari Avtoransport vositalarini saqlash va qo‘riqlash xizmatlari Marketing va reklama xizmatlari Texnik xizmat ko‘rsatish, yoqilg‘i ta‘minlash xizmatlari Maishiy (obodonlashtirish, chiqinlardan tozalash) | | |
| XAB tashkil etiladigan hududlar | | | | | |
| Qoroqalpog‘iston Respublikasi | Toshkent shahri, Toshkent viloyati | Samarqand Jizzax viloyatlari | Navoiy, Buxoro viloyatlari | Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari | Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlari |

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirzivovev “Markaziv Osiyo xalqaro transport koridorlari tizimida: strategik istiqbollar va foydalanilmagan imkonivatlar” xalqaro anjumanida: “Markaziv Osiyoda Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo, Yevropa, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarini birlashtiruvchi muhim tranzit yo‘l bo‘lib xizmat qiladigan vagona integratsiyalashgan xabni yaratish masalalari mintaqamiz uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi”³⁴, - degan taklif berdi. D.Ibragimova: “Temir yo‘l transportida muammolar saqlanib qolmoqda sohaning o‘zgarishi, rivojlanishi bilan bog‘liq raqobat, etkazib berish samaradorligining pastligi..., yuk, yuk egalari uchun

³⁰ П.В.Медведев. Формирование транспортно-пересадочных узлов в городах. Ж.: Вестник Университета № 11 (Государственный университет управления), 2014. С. 120-124

³¹ Железнодорожный узел / Железнодорожный транспорт: Энциклопедия — Гл. ред. Н. С. Конарев // М.: Большая Российская энциклопедия, 1994, - 559 с., ил. ISBN 5-85270-115-7. С. 145-146.

³² Transport and logistics systems for the transportation of goods: textbook for universities / V.E. Shvedov [and others]. St. Petersburg: Intermedia, 2020. - 288 p.

³³ Muallif ishlanmasi.

³⁴ Markaziy Osiyo xalqaro transport yo‘laklari tizimida: O‘zbekiston nigohi. [Elektron manba]:

<https://irs.uz/uz/maqolalar/markazij-osie-halkaro-transport-julaklari-tizimida-uzbekiston-nigoi> (qaraldi 13.01.2023)

qulaylik va qulay shart-sharoitlar yaratish uchun yangi usul va yondashuvlarni joriy etish zarur”³⁵-deb ta’kidlaydi.

Muallif yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ quyidagi (4-rasmga qarang) tashkiliy-boshqaruv tuzilmasini tavsiya qilgan.

Shaharlarda bunday maydonlarni tashkil etish aholini ko‘chirish bilan va boshqa muammolar bilan bog‘liq. “Temir yo‘l va avtomobil yo‘llari kesishgan markaziy hamda havo yo‘liga yaqin hududlarda logistika xablarini yaratish”³⁶-maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Bu bilan shahardan tashqarida xablarni qurish zarurligi ilmiy asoslarga ega. O‘zbekiston temir yo‘llarining ilmiy-amaliy bazasini shakllantirish asosida temir yo‘l va avtomobil yo‘llari kesishgan hududlarda temir yo‘l va avto tashuvlarning integrallashgan (xab) tizimini tashkil etish natijasida ekspertlarining fikriga ko‘ra mamlakatning eksport darajasi 30 foizga, asosan ko‘mir, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, kimyoviy o‘g‘itlar hisobiga o‘shisi bashorat qilingan. Mamlakatda YIM 20 foizga ko‘tariladi, tashilayotgan tranzit yuklarning o‘zi 15 mln. tonnaga yetsa, mamlakatning eksport va import yuklari 50 foizga ortishi qayd etilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Temir yo‘l transporti xizmatlarini baholash metodologiyasini takomillashtirish”** deb nomlanib, temir yo‘l transporti tashkilotlarida boshqaruv qarorlari bilan ishlash holati hamda boshqaruvga ta’sir etayotgan omillar, temir yo‘l transporti xo‘jalik faoliyati natijalari qiyosiy baholangan. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ transporti xizmatlari tanqidiy baholangan, tizimda monitoring o‘tkazish, qarorlarning riskka moyilligini aniqlash metodologiyalari takomillashtirilgan.

Muallif temir yo‘l transporti boshqaruv mexanizimi samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar: boshqaruv qarorlari, tizimga taalluqli bo‘lgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ishlashda sustkashlikka yo‘l qo‘yilganini tanqidiy o‘rganish asosida boshqaruv qarorlari bilan ishlash metodologiyasini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda qarorlar bilan ishlash mexanizmi takomillashtirilgan. Ushbu usulning foydalanilayotgan boshqaruv usulidan farqi boshqaruv qarorlarini bajarish hisobotlari to‘liq raqamlashtirilib onlayn holatga o‘tkaziladi, chora-tadbirlarning har bir bosiqichi O‘zbekiston Respublikasining tegishli me‘yoriy hujjatlari asosida sun‘iy intellekt yordamida boshqariladi. Motivatsiya hamda moddiy javobgarlik suniy intellekt tomonidan qo‘llaniladi.

Muallif “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ning 2018-2023-yillardagi moliyaviy - xo‘jalik faoliyati, ya’ni transport xizmatlariga kiritilgan investitsiyalar, davr xarajatlarining tarkibi, yuk va yo‘lovchi tashishning moliyaviy natijalarini tahlil qilgan (7-jadvalga qarang).

2018-2023- yillarda “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJga investitsiya moliyaviy - xo‘jlik faoliyatini tiklash uchun yetarli miqdorda kiritilmagan. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJga 2023-yilda 0,5 milliard AQSh dollarida³⁷ investitsiya kiritilgan bo‘lsa, jahon davlatlarida ushbu yo‘nalishga kiritilgan investitsiya Xitoyda 70,88³⁸, Yaponiyada 5,28³⁹, Shvetsiyada 15,88⁴⁰, Germaniyada 13,41⁴¹, qo‘shni Qozog‘istonda 3,8 milliard AQSh dollarida⁴² sarmoya kiritilganligi argument sifatida keltirilgan.

³⁵ D.Ibragimova. Трансформация транспортной системы Узбекистана. J.: Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar. № 1 (12) 91 Yanvar-mart 2021. 90-102 b.

³⁶ Muallif tomonidan kiritilgan taklif. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-300-sonli qarori 53-maqsadning 19-bandini 6-amaliy chora-tadbiri.

³⁷<https://railway.uz/ru/proekty/103/> (qaraldi 20.10.2023).

³⁸<https://index1520.com/news/investitsii-kitaya-v-zheleznodorozhnyy-sektor-vyrosli-na-7-1-prots-s-yanvary-po-sentyabr-2023-goda/> (qaraldi 21.12.2023).

³⁹ <https://www.uzdaily.uz/ru/post/78466> (qaraldi 12.01.2024).

⁴⁰<https://zdmira.com/news/shvetsiya-vydelyaet-na-razvitie-infrastruktury-bolee-880-milliardov-kron> (qaraldi 12.01.2024).

⁴¹ <https://zdmira.com/news/germaniya-investiruet-eshche-12-5-mlrd-evro-v-zheleznye-dorogi> (qaraldi 12.01.2024)

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda 2018-2023 yillar moliyaviy-xo‘jalik faoliyati ma‘lumotlari⁴³

| № | Ko‘rsatkichlar | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|--|---|--------|--------|-------|------|-------|-------|
| Transport xizmatlariga kiritilgan investitsiya (mlrd.so‘m) | | | | | | | |
| 49,1 | Temir yo‘l orqali yo‘lovchi tashish, shaharlararo | 367,6 | 1118,7 | 5,4 | 5,5 | - | 2,1 |
| 49,31 | Shahar va shahar atrofiga qatnaydigan quruqlikdagi yo‘lovchi transporti | x | x | x | x | x | x |
| 49,32 | Taksi faoliyati | x | x | x | x | x | x |
| 49,2 | Temir yo‘l yuk transporti | 30,6 | 2723,9 | 158,7 | 17,0 | 7,9 | 106,7 |
| 49,42 | Avtomobil transportida yuk tashish | x | x | x | x | x | x |
| “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda davr harajatlari tarkibi (mlrd.so‘m) | | | | | | | |
| 1 | Davr xarajatlari (040-str) | 10,3 | 10,5 | 16,1 | 14,2 | 19,9 | 19,3 |
| 2 | Sotish xarajatlari | 0,9 | 0,9 | 0,4 | 0,2 | 0,6 | 0,6 |
| 3 | Ma‘muriy xarajatlar | 1,8 | 2,3 | 2,4 | 2,9 | 2,9 | 3,3 |
| 4 | Boshqa operatsion harajatlar | 6,4 | 4,1 | 11,6 | 7,8 | 12,6 | 11,1 |
| 5 | Mol-mulk solig‘i | 0,4 | 2,5 | 0,6 | 1,0 | 1,0 | 1,2 |
| 6 | Yer solig‘i | 0,1 | 0,2 | 0,5 | 1,5 | 2,0 | 2,3 |
| 7 | Homiylik va xayriya | 0,7 | 0,5 | 0,6 | 0,8 | 0,8 | 0,8 |
| Temir yo‘l orqali yuk va yo‘lovchi tashish moliyaviy natijasi foyda (+) yoki zarar (-) (trln. so‘m) | | | | | | | |
| 49,2 | Temir yo‘l yuk transporti | +907,9 | -420 | -4,7 | 242 | -1156 | -1172 |
| 49,1 | Temir yo‘l orqali yo‘lovchi tashish | X | X | X | X | -0,7 | 4,5 |

Muallif “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning daromad va xarajatlarini tahlil qilish asosida qator yillar zarar bilan ishlayotganligining sabablaridan biri sifatida homiylik uchun har yili katta miqdorda summalar ajartilayotganligini izohlaydi. Kompaniya xomiylik uchun 2018-2023-yillarda 4,2 mlrd. so‘m mablag‘ ajratgan. Ushbu homiylik summalari Toshkent davlat transport universiteti, O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyatiga, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi “Baxshi” san‘at markazi, O‘zbekiston yilqichilik va sport federatsiyasi, Qoroqalpog‘iston Respublikasi To‘rtko‘l tumanidagi mahallalarga, “Lokomotiv” PFK, O‘zbekiston Respublikasi boksni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga, O‘zbekiston Respublikasi Satira teatri va qator tashkilot va korxonalariga o‘tkazib kelinganligi to‘g‘risidagi asoslarni keltirgan⁴⁴.

Muallif tomonidan “O‘zbekiston temir yo‘llari”AJdagi logistika xizmat ko‘rsatish samardorlik ko‘rsatkichlari jahon davlatlarining logistika samaradorlik ko‘rsatkichlari bilan solishtirib chiqilganida O‘zbekiston jahonda 87-o‘rinda ekanligi qayd etilgan (8-jadvalga qarang).

⁴²<https://www.newscentralasia.net/2023/09/18/amerikanskaya-kompaniya-investiruyet-v-transportnuyu-otrasl-kazakhstan-1-mlrd-doll-ssha/> (qaraldi 12.01.2024).

⁴³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agetligining ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. [Elektron manba]: <https://stat.uz/uz/> (qaraldi 21.02.2024).

⁴⁴O‘zbekiston temir yo‘llari”AJning 2023-yil biznes reja ma‘lumotlaridan olindi. [Elektron manba]: <https://railway.uz/upload/iblock/6cd/m89pk517cycc8end0rokdujrf8x03jnd.pdf> (qaraldi 21.02.2024).

Qiyoslanayotgan davlatlarning 2023-yil logistika samaradorlik indeksi⁴⁵

| Davlat | LSI rey tingi | Bojxona | Infra-tuzilma | Xalqaro tashuvlar | Logistika raqobat | Kuzatuv va raqobat | O'z vaqtida yetkazish |
|-------------|---------------|---------|---------------|-------------------|-------------------|--------------------|-----------------------|
| Singapur | 1 | 4,3 | 4,6 | 4,0 | 4,4 | 4,3 | 4,4 |
| Germaniya | 4 | 4,1 | 3,9 | 4,3 | 3,7 | 4,2 | 4,1 |
| Xitoy | 20 | 3,7 | 3,3 | 4,0 | 3,5 | 3,8 | 3,7 |
| Turkiya | 42 | 3,4 | 3,0 | 3,4 | 3,5 | 3,6 | 3,5 |
| Hindiston | 38 | 3,4 | 3,0 | 3,2 | 3,5 | 3,5 | 3,6 |
| Qozog'iston | 69 | 2,7 | 2,6 | 2,5 | 2,6 | 2,7 | 2,9 |
| O'zbekiston | 87 | 2,6 | 2,6 | 2,4 | 2,6 | 2,6 | 2,8 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston bojxona, infratuzilma, xalqaro tashuvlar, logistika raqobati, kuzatish va o'z vaqtida yetkazib berish masalalarida ortda ekanligi O'zbekiston reytingiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

“O'zbekiston temir yo'llari” AJda temir yo'l transporti xizmatlaridan 2023-yilda tushgan daromadi jahonning rivojlangan davlatlarida temir yo'llardan kelib tushayotgan daromadlarga qiyosiy solishtirilgan.

Muallif tomonidan temir yo'l transporti orqali yo'lovchi tashish xizmatlari uchun olinayotgan bir kishi uchun yo'l to'lovi boshqa transport turlaridagi tashish xizmati narxlariga solishtirilgan. Bunda temir yo'l transporti narxlari xususiy yengil avtomobil transporti bilan raqobatbardosh narxlarda emasligi asoslangan. Temir yo'l transportidan foydalanish noqulay vaqtga to'g'ri kelishi asos sifatida keltirilgan.

“O'zbekiston temir yo'llari” AJning qo'shni Turkmaniston, Tojikiston, Qoroqalpog'iston, Qirg'iziston resublikalaridagi yuk tashish uchun xizmat narxlari solishtirilgan. O'zbekiston transport xizmati narxlari qo'shni Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston Respublikasining transport narxlaridan bir necha barobarga yuqoriligi aniqlangan.

“O'zbekiston temir yo'llari” AJ operatorlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning PL darajasi solishtirilganida “O'zbekiston temir yo'llari” AJda ko'rsatilayotgan xizmatlar rivojlangan jahon davlatlaridan ortda, ya'ni 2 PL darajada ekanligi aniqlangan. Jahonda ushbu ko'rsatkich 3PL darajada

“O'zbekiston temir yo'llari” AJning mamlakat iqtisodiyotiga qo'shgan hissasi, yuk tashish hajmi, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari jahonning rivojlangan davlatlari bilan qiyoslangan.

“O'zbekiston temir yo'llari” AJda xizmatlar SWOT tahlili hamda PEST tahlili asosida baholangan. Kompaniyaning to'lovga qobiliyatlik, likvidlik koeffitsiyentlari aniqlangan. Ya'ni rentabellik koeffitsiyenti 0,13 (Dyupon formulasi asosida hisoblanganida, me'yor 0,6-0,7) moliyaviy leveridji juda past. To'lovga qobiliyatlik koeffitsiyenti 30,77 foizni tashkil etganligi (me'yor 30-40 foiz) to'lovga qobiliyati pastligi, o'z aylanma mablag'larini ko'paytirish taklifi berilgan. Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti 49,01foizga teng bo'lib (me'yor 0,2-0,25 koeffitsiyentda yoki 20-25 foiz), 23 foizga oshib ketgan, risk yuqori. Shaxsiy aylanma mablag'larning jalb qilish koeffitsiyenti 1,27 ekanligi kamida 4 koeffitsiyentni ko'rsatsa, samaradorlik yuqori bo'lishi ta'kidlangan.

Temir yo'l transporti xizmatlarida jahon tajribasini ilmiy asoslarini tadbqiq etish muallif nazaridan chetda qolmagani holda jahon tajribasidan kelib chiqib,

⁴⁵ Jahon banki ma'lumotlari/[Elektron manba]: https://lpi.worldbank.org/sites/default/files/2023-04/LPI_2023_report.pdf (qaraldi 21.02.2024). Ma'lumotlar asosida muallif tomonidabn tayyorlandi.


“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini yuritish, iqtisodiy ko‘rsatkichlarini barqarorligini ta‘minlash uchun temir yo‘l tizimini, uning boshqaruvini to‘liq transformatsiyalash zarurligi to‘g‘risida xulosaga kelingan.

Muallif transformatsiyalash jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish, uni mutazam baholab borish, doimiy monitoring o‘tkazish orqali muammolarni operativ hal etish bilan erishish mumkinligi to‘g‘risidagi xulosaga kelgan. Ushbu g‘oyani amalga oshirish maqsadida “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda transformatsiyalash jarayonlarini amalga oshirish hamda raqamli transformatsiyalashni olib kirishni majmual baholash metodologiyasi ishlab chiqilgan (9-jadvalga qarang). Baholash kriteriyalarida “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ xolding kompaniyasi modullar bo‘yicha yettita blokka ajratilgan.

Har bir modulda transformatsiyalash borasida amalga oshiriladigan ishlarni mazmun va mohiyatiga ko‘ra 5 baldan 20 balgacha baholash mezonlari qo‘llanilgan. Baholash temir yo‘l sohasida faoliyat yuritayotgan ekspertlar hamda anketa so‘rovnoma asosida amalga oshirilgan. Baholash mezonlariga ko‘ra jami 580 ball yig‘ilishi kerak bo‘lsa, jami 86 ball yig‘ilgan. Natijada tizim transformatsiyalash jarayoniga 14,8 foiz tayyorligi aniqlagan.

Ushbu metodika orqali alohida bloklarga ajratilgan boshqaruv tizimi, harakat tarkibi platformasi, multimodal yo‘lovchi tashish, infratuzilma platformasi, yuklarni yetkazib berish jarayonlari, multimodal yuk tashish platformasi, transport-logistika platformasini baholash asosida transformatsiyalash jarayonlarini nazorat qilishga e‘tibor qaratilgan. Tizim ekspertlar tomonidan baholanganidan so‘ng natijalarni ko‘rib chiqish yuzasidan boshqaruv mexanizmi ishlab chiqilgan (4-rasmga qarang).

4-rasm. Transformatsiyalash jarayonlarining baholash mexanizmi⁴⁶.



⁴⁶ Muallif ishlanmasi

Baholash mexanizmida ma'lumotlar yagona bazaga to'planadi. To'plangan ma'lumotlar ekspertlar tomonidan baholanib, operatorga yuboriladi. Operator ma'lumotlarni jamlab, xolding kompaniyasining boshqaruv raisiga, boshqaruv raisi ichki audit xizmatiga yuboradi. Ma'lumotlar tekshiruvdan o'tgach, natijalar jamlanib, boshqaruv raisi imzosi bilan kuzatuv kengashiga yubordi. Kuzatuv kengashi olingan ma'lumotlarni taftish komissiyasiga yuboradi. Xulosa "O'zbekiston temir yo'llari" AJ aksiyadorlarining umumiy yig'ilishiga chiqaradi. Umumiy yig'ishda mazkur masalaga oydinlik kiritilib, amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar yuzasidan qaror qabul qilinadi.

Muallif tomonidan kelgusida "O'zbekiston—Afg'oniston—Pokiston" hamda "O'zbekiston—Qirg'iziston—Xitoy" yangi temir yo'l yo'laklarining ishga tushishi mamlakat iqtisodiyotida keng islohotlarga sabab bo'lishi to'g'risida boradi. "Mana shu ikkita katta temir yo'l bo'lsa, biz ham tarif orqali manfaat ko'radigan davlatga aylanamiz, birovga qaram bo'lmaymiz"⁴⁷. Muallif tomonidan "Xitoy—Qirg'iziston—O'zbekiston—Afg'oniston—Pokiston" temir yo'l yo'lagingining kelajakdagi imkoniyatlari sarhisob qilingan (10-jadvalga qarang)

10-jadval

"Xitoy—Qirg'iziston—O'zbekiston—Afg'oniston—Pokiston" temir yo'l yo'lagingining imkoniyatlari⁴⁸

| "Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston-Afg'oniston-Pokiston" temir yo'l yo'lagi | Erishiladigan yutuqlar | |
|---|------------------------|--------------|
| | Hozir | Kelajakda |
| Pokistonga temir yo'l orqali yuk yetkazish (kun) | 35 | 3-5 kungacha |
| Uzoq Sharq ko'rfaziga etib borishi (kun) | 100 | 49 |
| 1 ta konteynerni Xitoydan O'zbekistonga etib kelishi uchun to'lov miqdori (Transsibir yo'l orqali 1 ta konteyner yuk tashilganida 1km. uchun 0,026 AQSh dollarida ⁴⁹ to'lov qilingan). | 150 dan 250 gacha | 50 |
| Hindiston, Eron, Bangladeshga etib borish (kun) | 10 | 5-6 kungacha |
| Hindistonning Mumbay portiga etib borish (kun) | 17 | 7 |
| Shimoliy Afrikaga etib borish (kun) | 40 | 6 |

Ushbu yo'lak kelgusida Markaziy Osiyo va jahonda yirik transport logistika magistraliga aylanadi. Janubiy Osiyoning 2 milyard iste'molchisiga ega bozorga chiqadi. Magistral yo'lning davom etishi natijasida Shimoliy Afrika, Arabiston davlatlari O'zbekiston mahsulotlari uchun ochiladi. Dastlabki ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra O'zbekiston eksporti 30 foizga oshadi. Bunda Angren ko'mir, Sharg'un ko'mirning eksporti 1 millon tonnadan ortib ketadi. Mineral o'g'itlar eksporti 500 ming tonnadan oshib ketadi. O'zbekistonning xo'lmeva va quruq mevalariga bo'lgan xorijiy bozordagi talabni hisobga olsak, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti ham oshadi. Mamlakatda YIM 20 foizga ko'tariladi. Transafg'on orqali 1 tonna yukni tranzit tashish 50 dollar daromad olib kelsa, bir yilda O'zbekiston tranzit yuk tashuvlaridan 250 million AQSh dollarida daromad qiladi. Ushbu yo'nalish doirasida temir yo'l va temir yo'l atrofidagi xizmatlar rivojlanadi.

Dissertatsiyaning "Temir yo'l transport korxonalarini faolivatini boshqarish jarayonlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari" deb nomlangan to'rtinchi bobida iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida temir yo'l xizmatlarini boshqaruv tizimi modeli, "O'zbekiston temir yo'llari" AJning xizmatlar bozoridagi boshqaruv strategiyasi, O'zbekiston Respublikasida temir yo'l xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarning 2030-yilgacha bo'lgan prognoz

⁴⁷"Biz birovga qaram bo'lmaymiz". Shavkat Mirziyoyev — Afg'oniston orqali o'tadigan temir yo'l haqida. [Elektron manba]: <https://www.gazeta.uz/uz/2023/08/18/afghanistan-railway/> (qaraldi 12.02.2024)

⁴⁸ Muallif ishlanmasi.

⁴⁹ Транспортно-логистические системы перевозки грузов: учебник для вузов / под общей ред. В.Е.Шведова. — СПб.: ИС.: Интермедия, 2019. — 288 с.

ko'rsatkichlarini ishlab chiqish asosida temir yo'l transporti korxonalarida xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshirish masalalari tadqiq etilgan.

Muallif ushbu bobda temir yo'l transporti xizmatlarida axborot tizimini identifikatsiyalash, xizmatlarni raqamli, texnologik, dasturli transformatsiyalash, xususiy sektor va davlat xususiy sherikchilik asosida investitsiyalarni olib kirishning 3 bo'limdan iborat transformatsiya modeli (5-rasmga qarang) hamda modelni amalga osirishning senariyli, besh bosqichli usullarini ishlab chiqqan.

Mazkur model uch bo'limdan iboratdir. Birinchi bo'limda tizimda xizmatlarni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqiladi. Ikkinchi bo'limda temir yo'l transporti xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqish jarayonlarida transformatsiya ishlari amalga oshiriladi. Uchinchi bosqichda transformatsiyalash jarayonida amalga oshirivchi jarayonlarni mablag' bilan ta'minlashda mabalag'larning tashkil topish manbalari bilan ishlash mexanizmlaridan foydalangan holda chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Xizmatlar bozoridagi temir yo'l transportining rivojlanishi temir yo'l orqali yuk, yo'lovchi tashish hajmining ortishini ifodalasa-da, ularning ta'sir darajasi turlichadir. Chunki, bu ko'rsatkichlar mamlakatdagi yalpi xizmatlarga bo'lgan talabni kuchaytiradi va shu yo'l bilan xizmat ko'rsatish hajmining ortishiga hamda pirovard mamlakat YIMsiga bilvosita ta'sir ko'rsatishini izohlaydi. Muallif tomonidan temir yo'l transport tizimi xizmatlari bevosita mamlakat YIMsi bilan bog'liqligini ifodalovchi ekonometrik model ishlab chiqilgan (11-jadvalga qarang). Model ishlab chiqishda "Mini Tab" dasturidan foydalanilgan.

11-jadval

2010-2023-yillarda "O'zbekiston temir yo'llari" AJning asosiy ko'rsatkichlari⁵⁰

| Yillar | YIM. mlrd. so'm. | Xizmatlar mlrd.so'm | Transport xizmatlari mln.t | Temir yo'lda tashilgan tranzit hajmi mln. t | Temir yo'l yo'lovchi va yuk tashish tizimiga kiritilgan investitsiya mlrd.so'm | Temir yo'lda yuk tashish hajmi mln.t | Temir yo'lda yo'lovchi tashish hajmi mln.kishi | Temir yo'l xizmatlari yuk eksporti xizmatlaridan mlrd.dol mln.dol | Temir yo'l yuklar importidan mlrd.doll. |
|--------|------------------|---------------------|----------------------------|---|--|--------------------------------------|--|---|---|
| 2010 | 78936,6 | 23121,8 | 763,1 | 14,1 | 627,1 | 56,9 | 14,5 | 197,8 | 19,1 |
| 2011 | 103232,6 | 35196,3 | 827,5 | 10,2 | 733,8 | 59,2 | 14,9 | 217 | 23,4 |
| 2012 | 127590,2 | 49386 | 858,7 | 11,4 | 730,3 | 61,5 | 15,9 | 240,2 | 17,2 |
| 2013 | 153311,2 | 55872,8 | 930 | 8,2 | 989,4 | 63,7 | 17,4 | 270,6 | 14,8 |
| 2014 | 186829,5 | 68032,1 | 1000,4 | 7,7 | 1715 | 65,7 | 19,1 | 285,6 | 29,9 |
| 2015 | 221350,9 | 78530,4 | 1070,5 | 7,6 | 1459,8 | 67,2 | 20,1 | 321,7 | 18,6 |
| 2016 | 255421,9 | 97050 | 1132,5 | 7,8 | 344,1 | 67,6 | 21,1 | 343,6 | 13,1 |
| 2017 | 317476,4 | 118811 | 1146,2 | 7,1 | 418,6 | 67,9 | 22,1 | 350,1 | 14,4 |
| 2018 | 426641 | 150889 | 1243 | 7,3 | 398,2 | 68,4 | 22,9 | 374 | 85,6 |
| 2019 | 532712,5 | 193697,8 | 1319,8 | 7,3 | 3842,6 | 70,1 | 6,2 | 502,3 | 79,3 |
| 2020 | 605514,9 | 219978,5 | 1366,7 | 9 | 164,2 | 70,6 | 7,9 | 572 | 21,1 |
| 2021 | 738425,2 | 284388,1 | 1420,2 | 8,5 | 22,5 | 72 | 9 | 563 | 17,3 |
| 2022 | 896617,9 | 366891 | 1420,9 | 9,5 | 62,9 | 73,4 | 9 | 486,5 | 22,7 |
| 2023 | 1066569 | 470286,5 | 1443,3 | 9,2 | 108,9 | 73,8 | 9,7 | 627,6 | 38,1 |

Ajratib olingan endogen va ekzogen omillar bog'lanishi asosida mamalakat YIMsini ortishida xizmatlar ulushida temir yo'l transporti xizmatlari asosiy

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agetligining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. [Elektron manba]: <https://stat.uz/uz/> (qaraldi 11.01.2024).

ko'rsatkichlarini o'zgarish trendlarini aniqlash maqsadida yuqoridagi vaqtli qator ko'rinishdagi ma'lumotlarni EViews10 dasturidan foydalangan holda tahlil qilingan.

Pirsonning korrelyatsiya matritsasi hamda Spirmenning rangovoy korrelyatsiya natijalarini ranjirlashda SPSS dasturidan foydalanib, temir yo'l taransporti faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarning YIM bilan korrelyatson ta'sirini aniqlash asosida muallif korrelyatsiya matritsasi bilan quyidagi xulosaga kelgan. Interpretatsiya koeffitsiyenti $r > 0,01 \leq 0,29$ Pirson metodi formulasi yordamida aniqlanishicha temir yo'l tranziti, temir yo'lga kiritilgan investitsiya, temir yo'l orqali import yuklarni tashish xizmatlarining YIM bilan bog'lanishi kuchsiz, temir yo'l orqali yo'lovchi tashish xizmatlari esa og'ir holatda ekanligini anglatadi, $r > 0,70 \leq 1,0$ formula orqali temir yo'l da yuk tashish xizmatlari, temir yo'l orqali yuklarning eksportga chiqarishda yetkazib berish xizmatlari hamda umumiy transport xizmatlarining mamlakat YIMsi ko'rsatkichlari bilan yuqori bog'liqlikdaligi aniqlandi. O'zaro bog'liqlik bo'lmagan, ya'ni, multikolleniarlik holati mavjud emas.

Korrelyatsiya matritsasi asosida olingan koeffitsiyentlar yordamida chiziqli regressiya tenglamasi tuzib olindi (11-jadvalga qarang).

YIMga ta'sir etuvchi omillar asosida ko'p omilli ekonometirik model tuzildi. Unga ko'ra ushbu jarayon ifodalandi:

$$(2) \quad Y = -49966,8 + 3,376 * X1 + 11.003 * X2 - 462,771 * X3 - 4,813 * X4 + 4807,8 * X5 - 2325,7 * X6 - 200,125 * X7 + 89,230 * X8$$

Bunda, Y – yalpi ichki mahsulot,

$X1$ – temir yo'l transportida tashilgan tranzit hajmi;

$X2$ – tashish va saqlash tizimiga kiritilgan investitsiya hajmi;

$X3$ – temir yo'l orqali tashilgan yuk hajmi.

Determinatsiya koeffitsiyenti (ta'rifi, formulasi va ularga sharh berish). Masala bo'yicha xulosalar. Ko'p o'zgaruvchili regressiyadagi determinatsiya koeffitsiyenti – R^2 miqdor Y o'zgaruvchanligining bashorat qilinuvchi o'zgaruvchilar tomonidan topilgan regressiya tenglamasi yordamida tushuntirilishi mumkin bo'lgan qismini bildiradi.


Korrelyatsiya matritsasi asosida olingan koeffitsiyentlar yordamida chiziqli regressiya tenglamasi tuzib olindi (12-jadvalga qarang).

12-jadval

Temir yo'l transport xizmatlari ko'rsatkichlarining 2010-2023-yillarda mamlakat YIMiga o'zaro ta'siri doirasida regression model natijalari⁵¹

| O'zgaruvchi | Koeffitsiyent | Standart xatolik | t-statistika | Ehtimolligi |
|----------------------------------|---------------|---|--------------|-------------|
| X1 | 3,376 | 0,648 | 5,209 | 0,006 |
| X2 | 11,003 | 59,625 | 0,185 | 0,863 |
| X3 | -462,771 | 753,9 | -0,614 | 0,572 |
| X4 | -4,813 | 1,572 | --3,063 | 0,038 |
| X5 | 4807,8 | 1052,21 | -4,569 | 0,010 |
| X6 | -2325,7 | 605,56 | --3,841 | 0,018 |
| X7 | -200,125 | 63,37 | -3,158 | 0,034 |
| X8 | 89,230 | 47,56 | 1,876 | 0,134 |
| C | -49966,80 | 65725,59 | -0,760 | 0,489 |
| R-kvadrat | 0,999726 | Bog'liq o'zgaruvchi o'rtachasi | | 26,411 |
| Tekislangan R-kvadrat | 0,999117 | Bog'liq o'zgaruvchi standart chetlanish | | 29,734 |
| Regressiyaning standart xatoligi | 1724,375 | Akayke axborot mezoni | | 7,47427 |
| Qoldiqlar kvadrati yig'indisi | 11893877,19 | Shvars mezoni | | 7,936815 |
| Logarifmik haqiqatga yaqinligi | -254,669 | Xanna-Kuin mezoni | | 7,826347 |
| F-statistika | 1827,881 | Darbin Uotson statistikasi | | 1,827987 |
| Ehtimollik (F-statistika) | 0,000000 | | | |

⁵¹ Muallif ishlanmasi.



5-rasm. "O'zbekiston temir yo'llari" AJning transformatsiyasini amalga oshirish modeli⁵².

Yuqoridagi model natijalarda korrelyatsida yuqori va past bog'liqlikda bo'lgan omillar aniq ko'rsatilgan bo'lsada, regressiyaga solib chiqilgan. Regression tahlilda yalpi ichki mahsulot 6 foizga o'sishi bashorat qilingan. Bunda ko'plik regressiya, R-kvadrat, R-kvadrat normasi 0,99 ni ko'rsatib, tanlagan omillar to'liq 0,01 farq bilan mosligi aniqlandi. Regressiyada $p > 0.005$ yuqori

⁵² Muallif ishlanmasi.

bo'lganligi sababli regression bog'liqlikni past ko'rsatmoqda. Buning asosiy sabablari fikrimiz va tadqiqotimizning dalili sifatida shuni ko'rsatmoqdaki temir yo'lda yuk tashuvi hamda temir yo'lda yo'lovchi tashuv xizmatlarida yuqori regressiya bog'liqlik mavjud bo'lib, barcha sa'yi harakatlarimiz ushbu yo'nalishlardagi xizmatlarni yanada rivojlantirish, undagi boshqaruv usullarini takomillashtirishga oidligini hisobga olsak, regression modelimiz aniq natijalarni ko'rsatib turibdi. Albatta temir yo'lga kiritiladigan investitsiya, tranzit yuklar, import yuklar, eksport yuklardan tushgan daromadlar yagona yuk tashuviga va yo'lovchi tashuvining yaxshilanishiga va oqibatda mamlakatning YIMning ortishiga ta'sir ko'rsatadi. Muallif ishlab chiqilgan ekonometrik modeldan foydalanib, ilmiy ishda amalga oshirilgan tadqiqotlarga muvofiq xizmatlar bozorida temir yo'l transporti xizmatlarini 2010-2023 yillarda mamlakat YIMsi va unga ta'sir etuvchi omillar asosida temir yo'l transporti xizmatlarining 2026-2030-yillarda o'sish sur'atlarini aks etuvchi prognoz ko'rsatkichlarining inersion va mobilizatsion variantlari ishlab chiqqan (13-jadvalga qarang).

13-jadval

Mamlakat YIMni xizmatlar bozorida ta'sir etuvchi omillar asosida ortishining 2030-yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarining senariy variantlari⁵³.

| Ko'rsatkichlar | Ko'rsatkichlar hajmi (amalda) | | | Prognoz turi | Xizmatlarning o'sishi hisobiga o'sish sur'atlari (prognozi) | | | | |
|--|-------------------------------|----------|----------|---------------|---|----------|----------|----------|--------------------|
| | 2021 | 2022 | 2023 | | 2026 | 2027 | 2028 | 2029 | 2030 |
| YIM mlrd.so'm. | 738425,2 | 896617,9 | 1066569 | Inersion | 1187117 | 1252408 | 1321290 | 1393960 | 1470627 |
| | | | | Mobilizatsion | 1270289 | 1346506 | 1427296 | 1767151 | 1873180 |
| Xizmatlar mlrd so'm. | 284388,1 | 366891 | 470286,5 | Inersion | 496152,3 | 523440,6 | 552229,9 | 582602,0 | 614645,6 |
| | | | | Mobilizatsion | 498503,7 | 528413,9 | 570687,0 | 775353,0 | 821874,0 |
| Transport xizmatlari mln.t | 1420,2 | 1420,9 | 1443,3 | Inersion | 1522,7 | 1606,4 | 1694,8 | 1788,0 | 1886,3 |
| | | | | Mobilizatsion | 1529,9 | 1621,7 | 1751,4 | 1856,5 | 1967,9 |
| Tranzit yuklar mln.t | 8,5 | 9,5 | 9,2 | Inersion | 9,7 | 10,2 | 10,8 | 11,4 | 13,7 ⁵⁴ |
| | | | | Mobilizatsion | 9,8 | 10,3 | 11,2 | 11,8 | 15 ⁵⁵ |
| Investitsiya kiritilishi mlrd.dol. | 22,5 | 62,9 | 108,9 | Inersion | 114,9 | 121,2 | 127,9 | 134,9 | 142,3 |
| | | | | Mobilizatsion | 115,4 | 122,4 | 132,1 | 140,1 | 148,5 |
| Temir yo'l orqali yuk tashish xizmatlari mln.t | 22,5 | 62,9 | 108,9 | Inersion | 114,9 | 121,2 | 127,9 | 134,9 | 142,3 |
| | | | | Mobilizatsion | 115,4 | 122,4 | 132,1 | 140,1 | 148,5 |
| Temir yo'l orqali yo'lovchi tashish mln.kishi | 72 | 73,4 | 73,8 | Inersion | 77,9 | 82,1 | 86,7 | 91,4 | 96,5 |
| | | | | Mobilizatsion | 78,2 | 82,9 | 89,6 | 94,9 | 100,6 |
| Temir yo'l orqali eksport xizmatlari mlrd.doll | 563 | 486,5 | 627,6 | Inersion | 662,1 | 698,5 | 737,0 | 777,5 | 820,2 |
| | | | | Mobilizatsion | 665,3 | 705,2 | 761,6 | 807,3 | 855,7 |
| Temir yo'l orqali import xizmatlari mlrd.doll | 17,3 | 22,7 | 38,1 | Inersion | 40,2 | 42,4 | 44,7 | 47,2 | 49,8 |
